



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Postda На посту

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!



2025-yil 6-mart
payshanba

№ 10 (4704)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqq boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

ТўМАРИС ИЗДОШИ

Бугун деярли барча жабҳаларда аёллар эр-каклар билан елкама-елка меҳнат қилмоқда. Жумладан, ички ишлар органларида кўплаб фидойи хотин-қизлар фаолият кўрсатяпти. Соҳанинг машаққатли синовларидан ўтиб келаётган ана шундай ходимлардан бири – Қашқадарё вилояти ИИБ Миграция ва фуқароликни расмийлаштириш бошқармаси канцелярия бошлиғи, сафдор Чарос Шамсутдиновадир.

Чарос енгил атлетика, волейбол, ўқ отиш машғулоти билан доимий равишда шуғулланади. Вилоят ИИБ хотин-қизларининг «Тўмарис» жамоаси аъзоси. Вазирлик томонидан ўтказилган «Тўмарис» мусобақаларида қашқадарёлик хотин-қизларнинг умумжамоа ҳисобида совринли ўринларни қўлга киритишдаги ҳиссаси ҳамда ўз вазифаларини бекаму кўст бажариб келаётгани учун «Тўмарис» кўкрак нишони билан тақдирланган.



Байрам тухфаси

ЗУЛФИЯ МУКОФОТИ ҒОЛИБЛАРИ ЭЪЛОН ҚИЛИНДИ

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Зулфия номидаги Давлат мукофоти билан тақдирлаш тўғрисида»ги қарори асосида бу йилги совриндорлар номи аниқ бўлди.

Анъанага мувофиқ, Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳридан аъло хулқи, ноёб истеъдоди, зукколиги, ташаббускорлиги, ўқишдаги муваффақиятлари ҳамда таълим, фан, адабиёт, маданият, санъат, спорт, ахборот технологиялари соҳаларида ва жамоатчилик фаолиятида алоҳида ютуқларни қўлга киритган қизлар тақдирланди.

ҲАМКАСБИМИЗ ОРДЕН СОҲИБАСИ БЎЛДИ

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «8 март – Халқаро хотин-қизлар куни муносабати билан мукофотлаш тўғрисида»ги фармонида кўра, ўзининг кўп йиллик самарали меҳнати, юқори касбий малакаси ва маҳорати билан юртимиздаги туб ислохотларда фаол қатнашиб, Янги Ўзбекистонни барпо этиш, халқимиз фаровонлигини юксалтириш йўлида алоҳида ташаббус ва ибрат кўрсатиб келаётган, оилаларда маънавий-ахлоқий муҳитни мустаҳкамлаш, фарзандларимизни Ватанга муҳаббат ва сadoqat, миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат руҳида тарбиялашга катта ҳисса қўшаётган бир гуруҳ опа-сингилларимиз мукофотланди.

Қувонарлиси, улар орасида II даражали «Соғлом авлод учун» ордени билан тақдирланган ИИБ Академияси профессори, истеъфодаги полковник Сорахон Аҳмедова ҳам бор.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИНГ ФИДОЙИ АЁЛЛАРИ

Саратонда ҳам чўққиларини қор тарк этмайдиган, ям-яшил арчаларга бурканган осмонўпар тоғлари, бой наботот ва ҳайвонот дунёси, асл тароватини йўқотмаган қадимий манзиллари чет эллик сайёҳлар ҳамда минглаб юртдошларимизни ўзига мафтун этаётган Жиззах вилоятининг Зомин тумани кейинги йилларда халқаро ва республика миқёсидаги йирик анжуманларга мезбонлик қилмоқда. Жорий йилнинг 26–28 февраль кунлари туманда «Янги Ўзбекистоннинг фидойи аёллари» шиори остида Ички ишлар органлари ходималарининг IV республика форуми бўлиб ўтди.

(Давоми 8–9-бетларда).



TAYINLANDI



**polkovnik
Sultanxodjayev
Ravshan Irkinovich**

**Toshkent shahar Ichki ishlar
bosh boshqarmasi boshlig'i
lavozimiga**

XALQARO HAMKORLIK

ISTIQBOLLI REJALAR

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha vakolatxonasi rahbar va mutaxassis xodimlaridan iborat delegatsiya O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutida bo'ldi.

Delegatsiya a'zolariga O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutining tashkil etilishi, maqomi, faoliyatining ustuvor yo'nalishlari va erishgan ilmiy natijalari haqida ma'lumot berildi.

Uchrashuv davomida O'zbekiston Kriminologiya tadqiqot instituti va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha vakolatxonasi ilmiy sohada hamkorlik yo'nalishlari muhokama etildi. Shuningdek, transmilliy jinoyatlar bo'yicha hamkorlikda ilmiy loyihalar amalga oshirish, institut tomonidan har yili o'tkazib kelinayotgan xalqaro forumda yetakchi kriminolog



olimlarning ishtirok etishini ta'minlash, institut huzurida tashkil etilgan xalqaro ekspertlar kengashiga a'zo tariqasida jalb qilish, O'zbekistonning jinoyatchilikni oldini olish bo'yicha ilg'or tajribalarini jahon hamjamiyatiga keng targ'ib qilish kabi bir qator kelishuvlarga erishildi.

Do'stona va konstruktiv ruhda o'tgan muzokaralar natijasida kriminologiya sohasida ilmiy hamkorlik chora-tadbirlarini kelgusida belgilangan tartibda amalga oshirish masalasini ishlab chiqishga kelishildi.

O'z muxbirimiz.

INSON VA JAMIYAT

TENGLAR ICHRA TENG

BMT tomonidan inson huquqlari bo'yicha qabul qilingan hamda respublikamiz qo'shilgan hujjatlarning talablarini bajarish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ana shu maqsadda xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratib berishga qaratilgan keng ko'lamli demokratik islohotlar o'tkazilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Inson qadri uchun» degan tamoyil barcha islohotlarimizning asosini tashkil etyapti. Yangi O'zbekiston «Inson – jamiyat – davlat» degan yangi tizim asosida jahonga tanilmoqda.

Jumladan, inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi doirasida shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta'minlash borasida maqsadli choralarni amalga oshirilyapti. Shuni qayd etish lozimki, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar milliy qonunchilikka va huquqni qo'llash amaliyotiga tizimli hamda bosqichma-bosqich implementatsiya qilinmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan 80 dan ortiq inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro hujjatlar normalari, shu jumladan BMTning 7 ta asosiy shartnomasi va 4 fakultativ protokoli qoidalari milliy qonunchiligimizda o'z aksini topdi.

BMTning teng huquqli a'zosi bo'lgan O'zbekiston ilk bor Xalqaro mehnat tashkiloti ma'muriy kengashiga a'zo bo'ldi.

Mamlakatimizda bola huquqlari kafolatlarini ta'minlash, ularni himoya qilish uchun zarur tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yurtimizda bu borada tashkiliy, huquqiy va amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Shu ma'noda, «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonun alohida ahamiyatga ega. Keyingi yillarda yurtimizda bolalar mehnatiga butunlay chek qo'yildi. Yetim bolalar va ota-onasi-



ning qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi takomillashtirildi. Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'rinbosari — Bola huquqlari bo'yicha vakil instituti joriy etildi.

Xotin-qizlarning gender tengligini himoya qilish bo'yicha ham respublika komissiyasi tomonidan bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, BMT tomonidan qabul qilingan xalqaro huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan qoida va tamoyillarni mamlakat milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish uzoq davom etadigan jarayon. Buning uchun kelgusida bir qator qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Abdug'afur SATTOROV,
yuridik fanlar doktori.

YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

JONBOZLIK UNING SIFATI

Safdor Jasur Normamatov, uch yildirki, Sirdaryo viloyati IIB JTSB Post-patrol xizmatida faoliyat ko'rsatadi. Xulqi, tarbiyasi, intizomi va ishga bo'lgan mas'uliyati bilan hamkasblaridan ajralib turadi.



...Qishning qirovli so'nggi kunlarida xodimlarga yo'llar, xiyobonlarda aholiga ko'maklashish, ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish vazifasi qo'yildi. Shu bilan birga, bezorilik, o'g'rilik kabi jinoyatlarga yo'l qo'ymaslik zarurligi qayd etildi.

Jasur Normamatov Guliston shahridagi eski bozor hududida xizmat olib boradi. Tabiiyki, bu hududda kriminogen vaziyat doim murakkab bo'lgan. Boisi, bozor kuni bilan gavjum, savdo rastalari ko'p. Shuningdek, bu yerda temiryo'l vokzali, avtoshohbekat ham joylashgan. Jasur odatdagidek atrofni zimdan kuzatdi. 14–15 yoshli o'smirning xatti-harakatlari unda shubha

uyg'otdi. Uning yoniga borib, kimligini surishtirdi. Sariqdan kelgan yigitcha dovdirab qoldi. Yaxshilab so'rab, u Farg'ona viloyatidan ekani, uyidan qochib kelganini aniqladi. O'smirni viloyat IIB HPB Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga olib borib, ishonchli qo'llarga topshirdi-da, yana ortiga qaytdi.

Darvoqe, safdor Jasur Normamatov sport musobaqalari, ko'rik-tanlovlarni va turli targ'ibot tadbirlarida ham juda faol xodimlardan.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.



ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ

БАХТИЁРЛАРДАН БИРИ

Наманганлик ички ишлар органи фахрийси, истеъфодаги капитан Басида Юнусова шижоатли, ташаббускор аёл. У тизимдаги фаолиятини вилоят ИИБ Молия-иқтисод бўлимида бошлаб, кейинчалик ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш хизматида турли лавозимларда намунали фаолият олиб борди.

Басида опа пенсияга чиққандан кейин Наманган шаҳар «Маънавият» маҳалласида хотин-қизлар мутахассиси, сўнг Наманган шаҳар Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлимида етакчи мутахассис, Янги Наманган тумани Оила ва хотин-қизлар бўлимида етакчи мутахассис, Камбағалликни қисқартириш ва бандлик бўлимида бош мутахассис лавозимларида ишлади. Ана шу даврда ажрим ёқасидаги оилаларни яраштириш, аҳоли муаммоларини аниқлаш ва уларни бартараф этиш ишларида иштирок этди.

– Ёшларни ҳаётга тайёрлаш, низоли оилалардаги вазиятларни ўрганиш ва муаммоларни ҳал

этишда илгари ички ишлар органида ишлаб, орттирган тажрибам асқатди, – дейди лавҳамиз қаҳрамони.

Ўтган йилнинг октябрь ойидан бошлаб у вилоят ИИБ Фахрийлар кенгаши аъзоси сифатида фаолият олиб бормоқда. 37 нафар фахрий ходиманинг ижтимоий ҳимояси, саломатлигини тиклаш ва бошқа масалаларни ҳал этишга масъул. Масалан, ўтган йили 5 нафар фахрий аёлларни Қўқон шаҳрига саёҳати ташкил қилинди. Унинг ҳали қиладиган ишлари кўп, Фахрий аёлларни моддий ва маънавий қўллаб-қувватлаш, улар иштирокида турли учрашувлар уюштиришдек



муҳим вазифаларни бажариш учун кўп тер тўкиши керак.

Басида опа жамиятдагина эмас, оилада ҳам бахт топган. Умр йўлдоши Мухторжон Омонуллоев билан ўғли Дилшоджон, тўрт набиранинг камолини қўриб яшашмоқда. Жамиятда аёл қадр-қиммати унинг меҳнатлари роҳатга айлангани,

бахтиёрлиги билан белгиланади. Ана шу маънода Басида опани ҳам замонамизнинг бахтиёр хотин-қизлари сирасига қўшсак бўлади.

Гулчехра БУВАМИРЗАЕВА,
ўз мухбиримиз.

Наманган вилояти.

SOHA FIDOYILARI

QALOVINI TOPSANG,
QOR HAM YONAR

Qish tugab, bahorning mayin epkinlari dimoqqa urilgan mahal. Denov tumani IIBga olis «Bobotogʻ» mahallasida koʻngilsiz hodisa haqida xabar keldi. Zudlik bilan tergov-tezkor guruhi togʻli mahalla tomon otlandi. Manzilga yaqinlasha boshlagach, bahor nafasi unutilib, qishning qahrli izgʻirini kuchayardi. Guruh aʼzolari ne koʻz bilan koʻrsinki, Bobotogʻda tizza boʻyi qor, kamiga osmondan guppillab qor yogʻardi.



Biroz yupun kiyingan xodimlar ichida ekspert, podpolkovnik Anvar Sharopov ham bor edi. Ular maʼlum nuqtaga yetishganda, mashina ham yurmay qoldi. Yoʻlning u yogʻiga ot bilan borish mumkin. Ustiga-ustak bu vaqtda atrofdan qorongʻilashib, tuman va qorli ob-havoda 1 metr-dan narisi koʻrinmayapti. Otliq xodimlar bir amal-lab voqea sodir boʻlgan hududga yetib borishdi. Lekin ancha kech boʻlib qolgani bois, shu yerlik bir kishining uyida tunab qolishdi.

Ertasi kuni ular jarlikka qulagan «Niva» mashinasini topishdi va uning ichidan halok boʻlganlarni olib chiqishdi. Uch kun deganda tergov-tezkor guruhi xodimlari xizmat vazifalarini ado etib, ortga qaytishdi.

– Bu voqea ham 10 yildan oshdi, – deb eslaydi viloyat IIB EKM bosh eksperti, podpolkovnik Anvar Sharopov. – U vaqtda Denov tumanida xizmat olib borar edim. Ana shunday qiziq voqealar koʻp boʻlgan. – 2014-yilda bir oʻgʻirlik jinoyatini «issiq

izida» ochish uchun voqea joyiga bordik. Oʻgʻirlik sodir boʻlgan uyning derazasidagi barmoq izini topib, aniqlik kiritgach, biryoʻla 8 ta oʻgʻirlik jinoyatini fosh etishga muvaffaq boʻldim.

Ha, Anvar Sharopov oʻz ishiga puxta va sinchkov xodim. Hech bir detalni eʼtiborsiz qoldirmaslikka harakat qiladi. 18 yillik faoliyati davomida koʻplab jinoyatlarning fosh etilishida jonbozlik koʻrsatdi.

– Ekspert qunt bilan yondashishi, hech bir narsani koʻzdan qochirmasligi kerak, – deydi lavhamiz qahramoni. – Erinchoqlik qilsa, muhim ashyoviy dalilni nazardan chetda qoldirib, jinoyat ochilmay qolishi yoki bu jarayonni qiyinlashtirishi mumkin. Shu bois vazifasini vijdonan bajarishi lozim.

Feruza RAHMONQULOVA,
oʻz muxbirimiz,

Surxondaryo viloyati.

AYOL VA JAMIYAT

Tuproqqalʼa tumanida ayollarning jamiyatdagi faolligini oshirish, ularni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish, jinoyat hamda huquqbuzarlik sodir etishlariga yoʻl qoʻymaslik maqsadida hokimlik, mutasaddi tashkilot va idoralar hamkorligida amalga oshirilishi lozim boʻlgan kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan.

MAXSUS DASTUR ASOSIDA



Dasturga muvofiq, muqaddam sudlangan, huquqbuzarlik sodir etishga moyil boʻlgan, yashash manzilidan uzoq muddatga chet ellarga ketgan, ijtimoiy foydali mehnat bilan shugʻullanmayotgan xotin-qizlar bilan «mahallabay», «xonadonbay», «fuqarobay» tamoyillari asosida ish olib borilyapti. Kam taʼminlangan, yakka-yolgʻiz, boquvchisini yoʻqotgan va nogironligi boʻlgan ayollarga moddiy va ijtimoiy yordam koʻrsatilmoqda.

– Ayollarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish, ularning turmush sharoitini yaxshilash, muammolariga yechim topish masalalariga alohida eʼtibor qaratyapmiz, – deydi tuman IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari boʻyicha katta inspektor, podpolkovnik Shahnoza Botirova. – Shuningdek, doimiy ish oʻrniga ega boʻlmagan ayollarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish, oʻqitish va kasb-hunarga yoʻnaltirish,

imtiyozli bank krediti ajratish orqali tadbirkorlik bilan shugʻullanishiga amaliy yordam koʻrsatish maqsadida turli tadbirlar, mehnat yarmakalari oʻtkazilmoqda.

Bu saʼy-harakatlar natijasida profilaktik hisobda turgan 243 nafar xotin-qizning barchasi mavsumiy va doimiy ish oʻrniga ega boʻldi. Mahalla faollari hamda tegishli tashkilotlar vakillari bilan hamkorlikda ish olib borilib, ajrim yoqasiga kelib qolgan 2 ta oilada sogʻlom muhit yaratildi. Tazyiq va zoʻravonlikka uchragan 6 nafar xotin-qizga himoya orderi berildi. Notinch oilalar bilan muntazam ravishda profilaktik suhbatlar olib borilayotgani bois, ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishi keskin kamayishiga erishilyapti.

Xudoybergan JABBOROV,
oʻz muxbirimiz.

Xorazm viloyati.



ЭТОТ СИЛЬНЫЙ СЛАБЫЙ ПОЛ

Женщину не случайно сравнивают с цветком и весной. Именно весной мы отмечаем Международный женский день – праздник, посвященный тем, кто делает мир добрее, светлее. Женщины не только хранительницы очага, но и профессионалы, труд которых важен для общества.

Наши героини служат в различных территориальных и отраслевых подразделениях МВД Каракалпакстана. Их объединяет самоотверженность, высокое чувство ответственности.

Нукусский район

Подполковник Рита Сарманова службу начала инспектором профилактики правонарушений среди несовершеннолетних, затем работала в уголовном розыске и в аналитическом отделе. Сегодня она – старший инспектор по вопросам женщин в Нукусском районе.

Рита трижды становилась победительницей национального конкурса «Женщина года» в номинации «Самая патриотичная женщина».

Кроме службы, она успешно справляется с другой важной ролью – заботливой матери двоих детей и любящей супруги.



Кегейлийский район

Старший инспектор по вопросам женщин капитан Сапаргул Бердишова ежедневно помогает женщинам, попавшим в сложную ситуацию. В прошлом году она изучила условия жизни 293 семей, выявила и помогла решить 137 проблем, оформила 138 охранных ордеров жертвам насилия.

– Часто женщины не знают своих прав или боятся осуждения, – говорит Сапаргул. – Мы объясняем, что они не одиноки, есть законы и люди, готовые помочь.



Берунийский район


Лейтенант Малохат Аvezова после окончания Хорезмского академического лицея и Академии МВД служит в отделе профилактики правонарушений. Зарекомендовала себя как профессионал, заслужив уважение коллег. Она активно участвует в общественной жизни, любит читать и стремится к саморазвитию.



г. Нукус

На выбор профессии капитана Улмекен Зарипбаевой решающее влияние оказал пример отца – Кенесбая Нурабуллаева, многие годы плодотворно прослужившего в органах внутренних дел.

Чтобы осуществить свою мечту, Улмекен поступила в Академию МВД, которую окончила в 2020 году. Служила дознавателем в следственном звене ОВД № 4 УКД ОВД города Нукуса, ОВД Тахиаташского района. В настоящее время капитан У. Зарипбаева является старшим следователем Следственного управления при МВД Каракалпакстана.



– Наша семья – династия сотрудников органов внутренних дел. Отец и сестра работают в этой системе. В Следственном управлении служит мой супруг Хасылбек Пахратдинов. Свекор и свекровь также посвятили годы службе в органах правопорядка, – рассказывает Улмекен. – Горжусь своей профессией. Для меня это не просто работа, а призвание.

Кунградский район

Вот обычный эпизод из службы старшего инспектора по вопросам женщин майора Жулдыз Утениязовой. Звонок из дежурной части – семейный скандал в махалле Бостан. Когда Жулдыз прибыла на место, перед ней предстала тревожная картина: нетрезвый мужчина на пороге, плачущая женщина в доме, трое испуганных детей. Ее задача – помочь семье найти выход, защитить женщину.

За образцовую службу Ж. Утениязовой в 2021 году было досрочно присвоено звание майора, в 2023 году она стала лауреатом конкурса «Признание года», а в 2024-м награждена нагрудным знаком «Тумарис».

Хурзада РЕЙМКУЛОВА,
подполковник.



BUYUK SIYMOLAR

GULBADANBEGIM



Zahiriddin Muhammad Boburning sakkiz qizi va to'qqiz nafar o'g'li bo'lgan, ular orasida uchinchi qizi Gulbadanbegim o'zining ijodga moyilligi bilan ota mehrini chuqurroq qozongandi.

Gulbadanbegim 1523-yili Kobulda tavalud topgan. Katta malika Mohimbegimning qo'li ostida ta'lim-tarbiya olgan Gulbadanga o'z davrining ilmiy fuzalolaridan ta'lim olish uchun sharoit yaratib berilgan. Uning bolalik va yoshlik yillari dastlab Kobul, keyinchalik Agrada o'tadi. 1539-yilda Xizrxo'ja ismli kishiga turmushga chiqib, o'g'il farzand ko'radi va unga Saodatyor deya ism qo'yadi.

Gulbadanbegim tomonidan yozilgan «Humoyunnoma» asari Shimoliy Hindiston xalqlari tarixini yoritish, Boburning katta o'g'li Humoyun hukmdorlik qilgan davr tarixini ochib berishga bag'ishlangan. Bu asarda XVI asrda Bobur va ayniqsa, Humoyun saroyidagi xotin-qizlar ahvoli va ularning feodal jamiyatida tutgan mavqelari haqida ham ko'p ma'lumotlar mavjud. Masalan, Gulbadanning o'zi ham Humoyun podshoh davrida ilm cho'qqilarini egallagan, savodi mukammal, temuriylar saroyidagi zodagon ayolga xos yuksak madaniyat sohibasi sifatida davlat miqyosidagi diplomatik munosabatlarda ishtirok etgan. Uning Sharq ayollariga xos nozik didi, sinchkovligi, oila a'zolariga o'ta mehribon va mushfiqligi kishi e'tiborini tortadi. Shuningdek, Gulbadanbegim Sharqda yagona tarixchi ayol sifatida shuhrat topgan.

Boburning suyuqli qizi Gulbadanbegim 1603-yilda 80 yoshida vafot etadi. Garchi u vafot etgan bo'lsa-da, «Humoyunnoma» orqali tarixnavis Gulbadanbegimning ikkinchi umri hamon barhayot. Bugun ushbu asar o'rta asrlar Sharq madaniyatining bebaho tarixiy-ilmiy yodgorligi hisoblanadi.

PROFILAKTIKA XIZMATI

Mayor Muhammadrizo Soliyev 13 yildan buyon ichki ishlar organlarida xizmat qiladi. Mahallada profilaktika inspektori bo'lib ishlayotganiga 9 yildan oshdi.

Qarangki, bir umr shifokorlik kasbi bilan shug'ullangan insonlarning farzandi butunlay boshqa sohani tanladi. «Bolam, mashaqqatli kasbning boshini tutgansan, sabrli bo'l», deydi Abdulhafiz aka bilan Zamiraxon opa har gal jigarbandiga dalda berish maqsadida. Muhammadrizo esa o'z kasbiga mehr qo'ygan. «Fuqarolarning tinchligini himoya qilish, boshiga biron ish tushganda darhol ko'makka yetib borish katta sharaflar» deb hisoblaydi u.

Prezidentimiz tashabbusi bilan barpo etilayotgan Andijon

viloyatidagi «Yangi Andijon» massivida 3,5 ming nafar aholi istiqomat qilmoqda. Kundan-kunga kengayib, rivojlanib, ko'rkamlashib borayotgan dahada osoyishtalikni uch yildan buyon mayor Muhammadrizo Soliyev ta'minlab kelmoqda. U aholining tinchligi, xotirjamligi yo'lida kecha-yu kunduz sergak.

– Xizmat hududimda qurilish ishlari davom etayotgani zim-

«YANGI ANDIJON»NING ISHONCHLI POSBONI

mamdagi mas'uliyatni ikki hissa oshiradi, – deydi qahramonimiz. – Obyektlarni tungi vaqtlarda doimiy kuzatib borib, qorovullarni hushyorlikka chaqiraman. Ular uxlab qolsa, o'g'rilik sodir etilishi yoki ashyolar talon-torajligi yuz berishi mumkin. Xayriyat, shu kungacha bunday holat ro'y bermadi.

Ko'p qavatli uylarda yashayotgan fuqarolar turli joylardan ko'chib kelgan, bir-biriga notanish. Yaqin qo'shnilar ham tanishib, o'rganib, kelishib ketguncha vaqt kerak. Ungacha «tanimaganni siylamas» qabilida har xil nizolar kelib chiqishi mumkin. Shunday paytda Muhammadrizo Soliyev janjallashayotgan fuqarolarga holatning huquqiy oqibatlarini tushuntiradi, ahil bo'lishga chorlaydi.

Hozirda dahadagi xizmat ko'rsatish shoxobchalari, savdo do'konlari va har bitta uy old qismiga kuzatuv kameralari o'rnatilgan. Endilikda milliy gvardiya xizmati bilan kelishgan holda, do'konlardagi kameralarni pult tizimiga ulash rejalashtirilyapti. Har bitta xonadonga domofon o'rnatish taklifi ham bor. Shunday qilinsa, xavfsizlik choralari yanada kuchaytiriladi.

Tungi vaqtda bemaqsad yurgan hech bir fuqaro mayor Muhammadrizo Soliyevning e'tiboridan chetda qolmaydi. Bir qarashda shubhali holatni payqay oladi. Darhol tegishli tartibda chora ko'radi. Shundanmi, «Yangi Andijon»da bugun tinchlik hukmron. Bahavo adirlar orasida zamonaviy infratuzilma asosida bunyod etilayotgan, bir-biridan ko'rkam uylar qad rostlayotgan yangi shaharchaga yo'lingiz tushsa, albatta, bir kirib o'ting. Bu obod mas-kanda o'zingizni xotirjam his qilasiz.

Nigora TO'XTAMATOVA.
Andijon viloyati.




XIZMAT JOYI – QOROVUL QO'SHINLARI

G'ALABANING ASOSI

Qo'shinlarga qarashli Namangan viloyatida joylashgan 7552-harbiy qism maxsus vazifalarni bajaruvchi safarbarlik guruhi katta mutaxassisi, oddiy askar Shohrux Qurbonov xizmatda qator yutuqlarga erishyapti. Shuningdek, o'quv mashg'ulotlari jarayonida ham safdoshlariga namuna bo'lmoqda.

Ustozlari – podpolkovnik Yodgor Azimov hamda katta serjant Yorqin Nurmatovdan sohaga oid bilim va ko'nikmalarni mukammal egallagan bu yigit o'tgan yillar davomida harbiy va kasbiy mahoratini yanada oshirdi. U jangovar, ijtimoiy-siyosiy va jismoniy tayyorgarlik bo'yicha ham o'z ustida mukammal izlanib kelmoqda. Shu bois qo'shinlar miqyosida o'tkazilgan sport musobaqalarida faol ishtirok etib, g'oliblar safidan joy egallamoqda.

– Shohrux Qurbonov xizmat faoliyatiga endigina to'rt yil to'lgan bo'lsa-da, ko'plab musobaqalarning sovrindori.



Jumladan, 2023-yili qo'l jangi bo'yicha o'tkazilgan qo'mondon kubogi musobaqasida o'z vazn toifasida shohsupaning yuqori pog'onasidan joy oldi. O'tgan yili esa mazkur bahslarda jangovar sambo turi bo'yicha ham 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Bundan tashqari, Namangan viloyati prokurori kubogi musobaqalarida ham milliy kurash bo'yicha 2-pog'onani zabt etib, harbiy qism sharaflini munosib himoya qildi, – deydi maxsus vazifalarni bajaruvchi safarbar guruhi komandiri, katta leytenant Sardorbek Uzoqov.

– Maydonga o'z irodam va texnikamni sinovdan o'tkazish maqsadida tushaman, – deydi lavhamiz qahramoni. – Sababi, sportchi uchun, eng avvalo, o'ziga ishonch g'alabani bo'lib xizmat qiladi.

Oddiy askar Shohrux Qurbonov kelajakda ofitser bo'lishni maqsad qilib, hozirda oliy o'quv yurtida sirtidan tahsil olmoqda.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.



QUSH UYASIDA KO'RGANINI QILADI

Bugungi yoshlarni anoyi deymaymiz. Ularga biror voqelik yo hodisani, mo'jizalarni tushuntirib qo'yadigan emas, fikrlashga undaydigan kitoblar kerakliroq va qiziqroq. Ayni maqsad borasida esa yoshlarga ularni keng tafakkur qildiradigan, o'zi-ning qiziqishlarini aniqlab olishlari va fanning ma'lum sohasi bilan shug'ullanishlariga turtki beradigan kitoblarni tavsiya qilish kerak. Zeriktirib, bezdirmasligi uchun oddiydan murakkabga qarab boradigan, ma'lum tizimda taqdim etiladigan kitoblar lozim.

Kattalar ko'pincha «Bugungi yoshlar qo'lga kitob olmay qo'ydi!», – deb noliyveradi. Biroq buning asl sababini surishtirib ko'rishmaydi. Xo'sh, nima uchun kelajak egalari ma'naviyatdan, ziyo olishdan o'zlarini mahrum qilib qo'ymoqda? Ayrim ota-onalar oiladagi oddiy mas'uliyatsizlik ortidan bilib-bilmay, «savodsiz avlod»ni shakllantirayotganini his qilishmayapti, nazarimda.



Yetti yoshli farzand «Ayajon, mana bu so'z qanday o'qiladi?», «Ertak aytib bering!», – deb so'-

raganida onasi hayotda ko'rganimizda jirkanib ketadigan voqealar tasvirlanadigan «Tik-Tok»dan bosh ko'tarmayotgan bo'lsa...

Yosh bolalar ota-onalari olib bergan smartfonlar turganida, hech kim ularning kitob o'qishini talab qilmaganida, albatta, ikkilanmay dastlabki variant tanlanadi. Ming afsuski, shunday qilib, jamiyat yana bir intellekt sohibi bo'lishi kutilayotgan bo'lajak yetuk kadrda ayrilib qoladi. Ayrim oila vakillari endi maktab yoshiga to'lgan o'g'il-qizlariga tug'ilgan kunlarida oshib borsa

50 ming so'm turadigan kitob emas, 500 dollarlik telefon sovg'a qilishayotganligini ham ko'rib turibmiz.

Go'dakning birinchi tarbiyachisi bu uning onasidir. Bola hayot, yaxshi-yomon narsalar

haqidagi bilim, tasavvurlarini, avvalo, uyida o'rganadi. Buning uchun esa onalar o'z usti-

**Kitoblar
sizni minglab asr
avval dunyodan
o'tgan dohiylar bilan
uchrashtiradi.
Rene DEKART**



da muntazam ishlashi kerak. Bola uyda o'ynaydi, kitob o'qiydi, dars tayyorlaydi, uy yumushlarida ota-onasiga yordam beradi. Shunday ekan, oilada shakllangan odatlar butun umrga yodida qoladi. Farzandining yaxshi, odobli mehnatsevar, sog'lom bo'lib o'sishi ko'p jihatdan onasiga bog'liq bo'ladi. Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, ona tarbiyasini olgan, uning g'amxo'r-ligi, shafqatini har qadamda his etib turgan bolalar butunlay o'zlarini jamoat ishiga baxshida qilib, farzandlaridan uzilib qolgan onalarning bolalariga qaraganda

sog'lom, aqlli, tarbiyali va ko'n-gilchan bo'lib ulg'ayishar ekan.

Onaning vazifalaridan yana biri farzandlarini yoshlik chog'laridan boshlab ilm-u ma'rifatga qiziqtirib, o'rgatib borish. Ilm-u fanning qaysidir sohasiga qiziqish paydo bo'lgan farzand oilasi, xalqi va Vatani uchun foyda keltiradigan farzandlar qatoriga kiradi. Darhaqiqat, onalar agar bolalariga yaxshi tarbiya bermasalar, ularda millatiga, Vatanga mehr uyg'otmas ekanlar, onalik haqqini ado etmagan bo'ladilar. O'zbek xalqida «Qush uyasida ko'rganini qiladi», degan naql bor. Ya'ni farzand tarbiyani, eng avvalo, ota-onasidan oladi, oiladagi qadriyatlar va an'analar bilan o'sadi. Bola to maktabga borib, jamiyatga qo'shilgunicha dastlabki qarashlari shakllanib bo'ladi. Bundan anglash mumkinki, kitobxonlik madaniyatining shakllanishida oiladagi muhit katta ahamiyatga ega.

Ota-onasi kitobxon, bolalikdan kitoblar ichida ulg'aygan bolaning kelgusidagi qarashlari ham kitobdan ayro bo'lmaydi. Demak, kitobxon yoshlarni ko'paytirish uchun avvalo bizga kitobxon oilalar kerak. Hozirda kitob o'qib, turli sovg'a, pul mukofotlari, hatto avtomobil yutib olish mumkin bo'lgan tanlovlar O'zbekistonda juda ko'p. «Yosh kitobxon», «Zukko kitobxon» kabi tanlovlar millionlab yoshlarni o'ziga jalb qilib, mutolaa madaniyatini shakllantirmoqda, kitobxonlikka targ'ib qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, kitoblar hayotning eng olis va qorong'u yo'llariga nur baxsh etgan mo'jizakor chiroqdir. Shunday ekan, hurmatli ota-onalar, bu chiroqdan farzandlaringizni bebahra qilib qo'ymang!

Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.





Героиня нашего времени



Елизавета Дуйсенбаевна КУТЫБАЕВА – доктор юридических наук, профессор. Вносит достойный вклад в развитие системы образования и воспитания, подготовку высококвалифицированных специалистов-юристов, научно-педагогических кадров в области государственного права и управления. Автор более 20 учебников и учебных пособий, трех монографий, около 100 статей.

Под руководством профессора Е. Д. Кутыбаевой реализован ряд фундаментальных и прикладных проектов по актуальным вопросам юридической науки и практики. Является членом Комитета конституционного надзора Республики Каракалпакстан.

За многолетнюю плодотворную научную деятельность, заслуги в обучении и воспитании молодого поколения ей присвоены почетные звания «Заслуженный деятель науки Республики Каракалпакстан», «Отличник народного образования Республики Каракалпакстан», награждена нагрудным знаком «Мехнат фахрийси».

■ Самаркандская область

Новые шаги в борьбе с преступностью

В Управлении внутренних дел области состоялась пресс-конференция, на которой была представлена информация о криминогенной ситуации, мерах, направленных на дальнейшее укрепление правопорядка и обеспечение общественной безопасности.

По словам главы УВД области, общее число совершенных преступлений выросло, что связано прежде всего с ростом киберпреступности.

– Мы ведем разъяснительную работу. Люди продолжают делиться персональными данными. Мошенники оформляют на них онлайн-кредиты, похищают деньги с банковских карт, – отметил полковник Рахмат Маматов.

Статистика подтверждает серьезность проблемы: свыше трети преступлений из зафиксированных в регионе в прошлом году связаны с кибермошенничеством. Уровень раскрываемости высокий – 93,8% противоправных деяний удалось раскрыть, 769 разыскиваемых преступников задержаны.

В то же время анализ показал снижение числа преступлений, совершенных в состоянии алкогольного опьянения, безработными гражданами и ранее судимыми – на 21%. Это во многом результат совместной работы инспекторов профилактики и общественности.

Одним из приоритетов остается создание безопасных условий в махаллах. Согласно данным, 370 из 1 126 махалл региона вошли в «зеленую» зону – там не допущено совершения ни одного преступления.



В этом году будут внедрены новые механизмы ранней профилактики преступлений. Согласно постановлению Президента за руководителями закрепляются махалли с наиболее сложной криминогенной обстановкой.

Кроме того, информационная система «E-ijtimoiy profilaktika» будет интегрирована с информационной системой «E-ma'muriy ish».

Внедрение новых механизмов направлено на обеспечение общественной безопасности, снижение уровня преступности и решение социальных проблем, являющихся причиной правонарушений. Эти меры позволят выявлять факторы нарушения закона и адресно их устранять.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.



Грани мастерства

СЛАГАЕМЫЕ УСПЕШНОЙ СЛУЖБЫ

В органы внутренних дел герой очерка пришел, следуя примеру отца, **Абдурахмона Саматова**, многие годы прослужившего в подразделениях профилактики правонарушений, вышедшего на заслуженный отдых в звании майора.



Далер Расулов уроженец шахтерского городка Красногорск Паркентского района. Юношеская мечта быть в рядах сотрудников органов правопорядка привела его в Академию МВД. Далее служба в следственном звене ОВД Бостанлыкского, Юкори-чирчикского районов. В 2022 году был переведен в УКД ОВД Яшнабадского района Ташкента. С минувшего года является старшим следователем отдела организации следственной деятельности и дознания СУ при ГУВД столицы.

Майор Д. Расулов обеспечивает своевременность и объективность служебных проверок, контролирует соблюдение уголовно-процессуального законодательства в ходе предварительного следствия, обоснованность действий следователей, качество и сроки расследования уголовных дел. Руководство высоко оценивает работу Расулова, отмечая его глубокие знания, чувство ответственности.

– В моем становлении велика роль наставников – майора Достона Норова,

ныне майора в отставке Баходира Эрматова, подполковников в отставке Дониёра Жураева, Дониёра Исаева, – подчеркивает наш собеседник.

Сегодня майор Д. Расулов – сам наставник. Среди его учеников лейтенанты Мурод Обидхужаев, Сардор Махамаджонов, Азиз Холиков и другие.

– Мы должны помогать молодым коллегам и словом, и делом, – говорит он. – В нашем деле необходимо постоянно работать над собой, повышать профессиональный уровень, перенимать передовой опыт. В этом залог успеха.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.



■ ФОРУМ

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИНГ

Ички ишлар органлари ходималарининг
IV республика форуми
ҒОЛИБЛАРИ

«Энг яхши китобхон ходима»

1-ўрин: катта лейтенант **Онорхол Исмоилова**, Тошкент шаҳар Олмазор тумани ИИОФМБ 4-сон ИИБ ХПБ хотин-қизлар масалалари бўйича инспектори.

2-ўрин: катта лейтенант **Дилбархон Умарова**, Андижон вилояти ИИБ ЭКМ катта эксперти.

3-ўрин: лейтенант **Зумрад Ибодуллаева**, Самарқанд шаҳар ИИОФМБ 4-сон ИИБ ХПБ хотин-қизлар масалалари бўйича инспектори.

3-ўрин: лейтенант **Хусния Умрзокова**, Жиззах вилояти Арнасой тумани ИИБ ХПБ хотин-қизлар масалалари бўйича катта инспектори.

«Заковат» интеллектуал ўйини

1-ўрин: Бухоро вилояти ИИБ жамоаси.

2-ўрин: ИИБ жамоаси.

3-ўрин: Тошкент шаҳар ИИББ жамоаси.

«Фидойи аёл» кўрик-танлови

1-ўрин: майор **Ирина Якубова**, ИИБ Молия ва моддий-техника таъминоти департаменти Капитал қурилиш ва таъмирлаш бошқармаси бўлим бошлиғи.

2-ўрин: катта лейтенант **Камола Қиличева**, Жиззах шаҳар ИИБ ХПБ хотин-қизлар масалалари бўйича катта инспектори.

3-ўрин: катта сержант **Зарина Саидалиева**, ИИБ ҳузуридаги ЖИЭД 1-минтақавий ҳудуд 7-сонли жазони ижро этиш колонияси ишлаб чиқариш бухгалтери.

КЎКЛАМ КУТИЛГАН
КУНЛАРДА

(Давоми. Бошланиши 1-бетда.)

Давлатимиз раҳбарининг 2023 йил 21 декабрдаги «Оилаларни мустаҳкамлаш ва хотин-қизларнинг фаоллигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»-ги қарори асосида уюштирилган мазкур тадбирда ИИБ,



ФИДОЙИ АЁЛЛАРИ



Қорақалпоғистон Республикаси, Тошкент шаҳри ҳамда вилоятлар ички ишлар органлари, шунингдек, жазони ижро этиш, транспортда хавфсизликни таъминлаш, Қоровул қўшинлари тизимларида хизмат қилаётган қарийб 250 нафар ходима ва ҳарбий хизматчи қатнашди.

Чунончи, адабиётга меҳри баланд 18 нафар ходиманинг билимлари «Энг яхши китобхон аёл ходим» танловида синалган бўлса, ҳар бири 5 кишидан иборат 18 та жамоа «Заковат» интеллектуал ўйинининг финал босқичида ва соҳанинг 18 нафар маликаси «Фи-



ган хулоса ҳам ўзгармади: «Кейинги беллашувларга янада кўпроқ тайёргарлик кўриш, касбий, жисмоний

ми самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарори бўйича Жиззах вилоятида

олиб борилаётган ишлар билан ҳам танишилди.

Шу билан бирга, гендер тенгликни таъминлаш, хотин-қизлар жиноятчилигининг олдини олиш, оилавий келишмовчиликларни бартараф этишнинг самарали усуллари, тушкун ёки агрессив кайфиятда бўлган шахслар билан мулоқот қилиш, реабилитация марказларига келтирилган вояга етмаганлар билан ишлаш каби қатор масалалар бўйича машғулотлар уюштирилди.

Айтиш жоиз, форум қатнашчиларининг бўш вақтлари мазмунли ўтиши учун давлат арбоби ва ёзувчи Шароф Рашидов уй-музеи, Ҳамид Олимжон ва Зулфия музейи, Жиззах вилояти ИИБ тарихи музейи ҳамда Янгиобод туманидаги Хўжамушкент ота зиёратгоҳига ҳамда «Зомин» туристик рекреацион зонасига саёҳат уюштирилди. Худди шундай, форум иштирокчилари вилоят ИИБ Туризмда хавфсизликни таъминлаш бошқармаси фаолияти билан танишиб, Миллий қўриқхона табиатидан баҳраманд бўлишиб, Зоминда кўкламни қаршилаётган ходималар билан биргаликда сумалак пишириб, гулхан теварагида шеърлар ўқиб, қўшиқлар куйлашди.

Форумнинг ёпилиш маросимида Ички ишлар ва-

зирининг ўринбосари, генерал-майор Даврон Назармухамедов қатнашиб, сўнгги 3 йилда 138 нафар аёлнинг турли соҳавий хизматларда раҳбарлик лавозимларида хизмат қилаётганлиги, ИИБ Академиясининг кундузги таълим шаклига қабул қилиш учун хотин-қизлар квоталари 5 фоиздан 10 фоизга кўтарилгани, соҳанинг 36 нафар вакиласи фалсафа доктори, 9 нафари фан доктори эканлигини ўз маърузасида қайд этиб, мамлакатимизда аёлларнинг жамиятдаги ролини ошириш борасида амалга оширилаётган ислохотлар хусусида ўз фикрларини баён этди.

Тадбир давомида форум доирасида ўтказилган мусобақа ва танловлар ғолиблигига Ички ишлар вазирлигининг фахрий ёрлиқлари ва эсдалик совғалари топширилди. 34 нафар ходима эса ссу-да, автокредит ва имтиёзли кредит асосида тураржой ажратилганлигини тасдиқловчи сертификатларни қабул қилиб олди. Бундан ташқари, анжуманни ташкил қилишда фаоллик кўрсатганлар Жиззах вилояти ИИБ раҳбарияти томонидан рағбатлантирилди. Қолаверса, хизмат даврида ҳалок бўлган жаззахлик ходимларнинг турмуш



дойи аёл» танловида илмлари билан бирдек, жисмоний ва жанговар маҳоратларини кўрсатишди.

Ҳар қандай беллашув каби мазкур кўрик-танлов ва мусобақалар ҳам ҳаяжонли лаҳзаларга бой бўлди. Табиийки, кимдир ғалаба ҳиссини, бошқа биров мағлубият аламини туйди, кимгадир озгина омад етишмади. Натижалардан чиқарилади-

ва жанговар салоҳиятни оширишга қаратилган саъй-ҳаракатларни янада кучайтириш керак!». Аслида, анжумандан кўзланган мақсад ҳам шу эди.

Форум доирасида давлатимиз раҳбарининг жорий йил 3 январдаги «2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизи-



ўртоқларига санаторийга йўлланмалар берилди.

V республика форумини келаси йили қадим Хоразмда ўтказиш таклифи билдирилиб, тадбир 8 март – Халқаро хотин-қизлар куни муносабати билан уюштирилган байрамга ула-ниб кетди.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
ўз мухбиримиз.
Жиззах вилояти.



NAVRO'Z – DO'STLIK VA BIRLIK RAMZIGA EGA BO'LGAN UMUMXALQ BAYRAMI



Mehr-oqibat va muruvvat kabi qadriyatlarni o'zida ifoda etadigan Navro'z eng qadimiy bayramlardan hisoblanadi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, ushbu bayram 3 ming yildan ortiq tarixga ega.

Xususan, Navro'z haqida «Avesto»da ko'klam gilyohlari unib, daraxtlar kurtak ota boshlagach, o'sha atrofdagi qora kuchlar mahf bo'lishi aytiladi.

Alisher Navoiy kun bilan tun tenglashgan (Quyosh taqvim bilan 21-mart) pallani shunday izohlaydi: Yuz ochib bildirdi qad birla sochi teng erkanin, Zohir o'lg'ondek tun-u kun tengligi Navro'zdin.

Umar Xayyom «Navro'zno» asarida: **«Qachonki, Hamal qoshidan o'z aylanish davri bo'ylab yo'lga chiqqan oftobni osmon yana uyiga qaytarib keltirsa, uning boshqatdan falak sayriga chiqishdan boshlab olamni o'zgartirib yuboradigan yangi tarix boshlanadi»**, deb yozadi. Al-Hakim at-Termiziy esa o'zining «Navro'zno» asarida Navro'z va Navro'z bayrami tafsilotlari barobarida uning kelishi haftaning qaysi kunlariga to'g'ri kelsa, yilning qanday kechishini, dehqonchilik, savdo-sotiq hamda boshqa sohalarida tabiat va zamonning avzoyini osmon yoritkichlari harakatlari orqali asoslab beradi.

Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk», Firdavsiyning «Shohnoma», Abu Bakr Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarlarida ham Navro'z haqida ma'lumotlar ko'p.

Islom tarixiga oid manbalarda ham ushbu kunga oid tushunchalar keng qo'llanilganiga guvoh bo'lalmiz. Xususan, ulug' ulamolarimiz fihiy kitoblarda xalqimizning an'anaviy hamda milliy bayramlarini, jumladan, Navro'zni bayram tariqasida nishonlash haqida fatvo berganlar. Binobarin, «Fatvoi zahi-

riya»da shunday deyiladi: «Navro'z uch xildir: Navro'zi Jamshidiy, Navro'zi Majusiy va Navro'zi Sultoni. Navro'zi Sultoni o'tkazmoqlik maqbuldir va hech dinga ziyoni yo'qdur».

Navro'zi Jamshidiy afsonaviy shoh Jamshid nomiga borib taqalsa, Navro'zi Sultoni mashhur Saljuqi hukmdor Jaloliddin Malikshoh nomi bilan bog'liq. Shu bilan birga, Sosoniylar hukmdori Piruz davrida ham transformatsiya yuzaga kelib, bayram Navro'zi Piruzi sifatida nom olgan. Ammo nom o'zgarishiga qaramasdan, asl mohiyat o'zgarmagan va bu kun yangi yilning boshlanish sanasi sifatida nishonlab kelingan.

Navro'z bayrami Afg'oniston, Albaniya, Bahrayn, Eron, Hindiston, Iroq, Livan, Ozarbayjon, Po-



kiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Suriya, Tojikiston, Turkiya, Turkmanistonda va Rossiya Federatsiyasining ayrim mintaqalarida keng nishonlanadi.

Mamlakatimizda Navro'z bayrami rasman 1990-yildan boshlab keng nishonlanib kelinadi. Shuningdek, ushbu yildan e'tiboran 21-mart kuni Navro'z umumxalq bayrami va dam olish kuni sifatida belgilandi.



Mazkur bayram 2009-yil 30-sentabrda insoniyat madaniy merosining ajralmas qismi sifatida YUNESKO tomonidan umumjahon nomoddiy madaniy meroslar ro'yxatiga kiritildi. Shuningdek, 2010-yilning 19-fevral kuni BMT Bosh Assambleyasining 64-sessiyasida 21-mart **«Xalqaro Navro'z kuni»** deb e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek, so'nggi yillarda **«Navro'z o'zining o'lmas ruhi, umuminsoniy g'oyalari bilan bashariyat hayotidan tobora chuqur o'rin egallamoqda»**. Albatta bu bejiz emas. Chunki

«Navro'z» bayramining ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini quyidagilarda ko'rish mumkin:

Birinchidan, mazkur bayram davlatchilik haqidagi qarashlarning ilk kurtaklarini o'zida aks ettiradi. Navro'z bu tarixan ajdodlarimiz udumlarini ulug'lab, qomusiy bir tizimga solgan, xalqimizning jipslashishi va davlatchilik tushunchalarining shakllanish jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir.

Ikkinchidan, Navro'z yer yuzining katta hududlari, xususan Xitoydan to Bolqon davlatlariga qadar cho'zilgan mintaqada istiqomat qilib kelayotgan xalqlar tomonidan birdek nishonlanuvchi bayramdir. Ushbu bayramning doimiy va keng miqyosda nishonlanishi dunyoning bir nechta davlatlari o'rtasidagi munosabatlarga ijobiy ta'sir qiladi.

Uchinchidan, Navro'z asrlar davomida shakllangan an'ana va qadriyatlarni saqlash va kelajak avlodga yetkazishga katta hissa qo'shadi. Bu orqali esa, turli avlodlar o'rtasida o'ziga xos muloqoti shakllanadi.

To'rtinchidan, Navro'z umumxalq bayrami sifatida ahillik, o'zaro birdamlik, mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlarini kuchaytirish va insonlarni vatanparvarlik, mehnatsevarlik, tinchliksevarlik, millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shunday ekan, bu bayram umrboqiy qadriyatlarimiz sirasiga kiradi. Barchamizga yangilanish, yasharish ayyomi – Navro'zi olam muborak bo'lsin.

Shuhrat RO'ZIYEV,
o'z muxbirmiz.



Maqolani
qoraqalpoq tilida
o'qish uchun
QR-kodni skaner
qiling.



*Ki bu sur erur olam afro'z ham,
Xususan erur fasli Navro'z ham...*

Alisher NAVOIY



UCH AVLOD UCHRASHUVI

DUNYO BILSIN TINCHLIK QADRINI

Har yili fevral oyida afg'on urushi ishtirokchilari yig'ilib, halok bo'lganlar ruhiga hurmat bajo keltirishadi, yoshlar bilan uchrashuvlar o'tkazishadi.



Ana shunday uchrashuvlardan biri IIV Qoraqalpog'iston akademika litseyida bo'lib o'tdi. Unda Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirining maslahatchisi, iste'fodagi polkovnik O.Turdaqov, vazirlik Faxriylar kengashi raisi, iste'fodagi podpolkovnik F.Sankibayev va bir qator baynalmilalchi faxriylar, ichki ishlar organlari faxriylari, o'quvchi yoshlar ishtirok etishdi.

– Tinchlik dunyodagi eng qadrlil ne'matlardan biri. Buni, ayniqsa, urushni boshidan o'tkazganlar juda yaxshi anglaydi. O'ylaymanki, bugungi uch avlod uchrashuvida bevosita harbiy harakatlarda ishtirok etganlarning hikoyalarini eshitgan o'quvchilarimiz hozirgi tahlikali zamonda tinchlikning qadriga yetish, uni asrab-avaylash naqadar muhimli-

gini qalban his etdilar, – deydi litsey direktori, podpolkovnik Uchqun Kadirov.

Tadbirda so'zga chiqqan afg'on urushi ishtirokchilari harbiy xizmat davomida boshidan o'tkazgan voqealar, qiyinchiliklar to'g'risida so'zlab, hozirgi dorilamon kunlarni qadrlash zarurligini ta'kidlashdi. Shuningdek, o'quvchi yoshlar o'zlarini qiziqitirgan savollarga javob olishdi.

Uchrashuv yakunida bir qator faxriylarga Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV va Faxriylar kengashi tomonidan tashakkurnomalar va esdalik sovg'alari topshirildi.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

TABRIK



Rixsitilla ABDULLAYEV,
O'zbek Milliy akademik drama
teatri aktyori va boshlovchi

Ayolni bahorga, bahorni esa ayolga qiyoslashadi. Hal gal o'lkamiz uzra muattar sepinl yoya boshlagan ko'klamning ilk kunlari aynan xotin-qizlar bayrami bilan boshlanishida ham ramziy ma'no bor.

Ayol oilaning qut-barakasi, fayzi, shodligi, tarovatidir. Osmoni musaffo, osoyishta yurtimiz mehdaryo onalarimiz, xonadonimiz chirog'i bo'lgan rafiqamiz, qalbi quyosh opasingillarimiz, farishta qizlarimiz bilan go'zaldir.

Aziz va munis onaxonlar, dilbar opa-singillar, barchangizni 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan samimiy qutlayman. Sizlarga sihat-salomatlik, oilalaringizga baxt-saodat, fayzli xonadoningizga to'kin-sochinlik, shod-u xurramlik, sharaflil ishlaringizda zafarlar tilayman.

Sizlar hayot berguvchi ulug' zotsizlar. Ayollik baxti, bekalik taxti, onalik martabasi Sizlarga hamisha hamroh bo'lsin!

SOHA FIDOYILARI

ULARNING HAM O'RNIL BOR

Poytaxtimizning Olmazor tumani IIOFMB Ta'minlash va xizmat ko'rsatish bo'linmalari komendanti, katta serjant Botir Karabayev hamda bo'linma haydovchisi, kichik serjant Sohib Normetovning boshqarmada alohida o'rni bor. Ularning faoliyati muhim va bir-biriga o'zaro bog'liq.

Katta serjant B. Karabayev 2007-yildan buyon Olmazor tumani IIOFMBda xizmat qiladi. U xizmat yuzasidan biriktirilgan yengil avtomashinalar hamda «Isuzu» rusumli avtobuslarni yonilg'i mahsulotlari bilan ta'minlash va texnik ko'rikdan o'tkazish, foydalanish uchun shay holatga keltirishga mas'ul. Shuningdek, boshqarma va hududiy IIB binolaridagi elektr energiyasi hamda gaz hisoblagichlarining sozligi va muhrlanganligini ta'minlash ham uning zimmasida. Asosiysi, energiya tejamkorligiga erishish uchun muntazam tushuntirish ishlarini olib boradi.



Hozir boshqarmada shaxsiy tarkibning jangovar shayligini oshirish maqsadida sport zali ta'mirlanmoqda. Bu ishlarda ham u bosh-qosh.

Kichik serjant S.Normetov esa tuman va shahar miqyosida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarda belgilangan hududda jamoat tartibini, xavfsizlikni ta'minlash uchun

xizmat avtobusida xodimlarni belgilangan manzilga borib-kelishini ta'minlaydi. Shuningdek, katta serjant B. Karabayev bilan birga nafaqa, oylik maoshlari hamda rag'batlantirish pullarini o'z egalariga yetkazishda mas'ul.

Sohib Normetov o'z ustida ishlab, biriktirilgan transport vositasining texnik imkoniyatlari, undan

foydalanish qoidalarini o'rganib boradi. Transport vositalarining sanitariya holati va ozodaligini saqlashga, yonilg'i-moylash mahsulotlari ortiqcha sarflanishining oldini olishga alohida e'tibor qaratadi. Yana bir alohida jihati shuki, avto-transport vositasi nosoz holga kelsa, u hadeb ustaga boravermaydi. Ta'mirlash ishlarini ko'pincha o'zi bajaradi.

Katta serjant B. Karabayevning o'g'li Zafar, kichik serjant S.Normetovning o'g'li Bahodir bu yil oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirish uchun tayyorgarlik ko'rmoqda. Ikkalasi yaxshi niyatda ichki ishlar organlari xodimlarining farzandlari uchun ajratilgan kvotalar doirasida oliy ta'lim muassasalariga qabul qilishda vazirlik tavsiyanomasini olish maqsadida hujjat topshirgan. Xodimlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida qilinayotgan bunday e'tibordan ikki xodim ham mamnun.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



Урок духовности и просвещения

НАВРУЗ – ВСЕНАРОДНЫЙ ПРАЗДНИК, ОЛИЦЕТВОРЯЮЩИЙ ДРУЖБУ И ЕДИНСТВО

«В Ферганской долине, горах Сурхана и Кашкадарьи, на земле Хорезма и Каракалпакстана, в прекрасных садах Самарканда, Бухары, Навои, на бескрайних просторах Джизака и Сырдарьи, зеленых предгорьях Ташкентского оазиса, грандиозных площадях любимой столицы наш народ проводит сайили, представления, с большой радостью отмечает Навруз».

Шавкат МИРЗИЁЕВ.



Весна – олицетворение обновления и возрождения. В это волшебное время года отмечается Навруз – праздник, символизирующий пробуждение жизни.

Навруз объединяет людей, наполняет сердца радостью и оптимизмом. Он означает «новый день», воплощает обычаи и традиции, передающиеся из поколения в поколение.

На протяжении веков Навруз занимал важное место в духовной жизни нашего народа как символ добра, милосердия и созидания. Для каждого из нас это один из самых любимых праздников с яркими сайилями, песнями и танцами.

Готовясь к Наврузу люди дружно проводят хашары – наводят

порядок во дворах, на улицах, озеленяют махалли, высаживая цветы и деревья. Особое внимание уделяется подготовке домов. Важный обычай – украшение дастархана блюдами из зелени, символизирующими рост и жизненную силу. В огромных казанах готовятся изысканные блюда – халим, плов и конечно же сумалак.

**Варят чудо-кушанье
На огне в котле.**

**В ночь Навруза слышатся
Песни в махалле.**

**И в рассветном гомоне
Посреди садов**

**Раздается звонкое:
«Сумалак готов!»**

**В круг все собираются
Утром стар и млад.**

**Пожеланья добрые
Целый день звучат.
Подается лакомство
Это в пиале.**

**Будьте, люди, счастливы
На родной земле!**

(Раим Фархади)

Светлый Навруз по духу созвучен воплощаемой в стране благородной идее «Во имя человека, во имя его счастья». Принципы гуманизма, уважения личности, бережного отношения к родной земле, на которых основана философия праздника, проявляется все ярче. Он одинаково любим представителями всех народов. Сегодня в нашей республике в мире и согласии живут представители более чем 130 наций и народностей, внося достойный

вклад в ее процветание. В регионах действуют 38 обществ дружбы и 153 национальных культурных центра.

Учитывая неограниченное значение Навруза в укреплении в многонациональном обществе Нового Узбекистана мира, атмосферы дружбы, в нынешнем году он будет отмечаться под девизом «Пусть будут вечными твои ценности, Навруз!» Праздничные мероприятия как всегда будут проходить в соответствии с духовными ценностями нашего народа, отражать любовь к родной земле.

То, что празднование Навруза в этом году выпадает на благословенные дни месяца Рамазан, приумножает его значение. Особое внимание будет уделяться представителям старшего поколения, лицам, проживающим в домах «Меҳрибонлик», «Саховат» и «Муруват», гражданам, внесенным в тетради социальной защиты, всем, кто нуждается в поддержке.

Навруз приобретает все большее международное значение. Включение его в Репрезентативный список ЮНЕСКО нематериального культурного наследия человечества, а также объявление Генеральной Ассамблеей ООН 21 марта Международным днем Навруза – свидетельство признания его важности и универсальности для культур всего мира. Это подчеркивает, что Навруз пронизан духом дружбы и уважения. В разных странах традиции его празднования могут отличаться, но суть остается неизменной – это праздник обновления и надежды. Навруз вновь и вновь напоминает: все мы являемся частью большого мира, важно укреплять и развивать диалог культур, взаимопонимание во имя будущего человечества.

**Альфия ГАЛЯМОВА,
старший преподаватель
УзГУМЯ.**



AYOL VA JAMIYAT

QIZILQUM BAG'RIDAN BAXTINI TOPIB

Tomdi tumani bepoyon Qizilqum bag'rida joylashgan. Ufqqa tutashib ketgan va sukunatga burkangan bu hududda shahar shovqiniga havasi kelmaydigan, soddadil, samimiy insonlar istiqomat qiladi.

So'nggi yillarda Tomdi tumanida ham aholining turmush sharoitlari yaxshilanib bormoqda. Bu yerda ham zamonaviy, ko'rkam binolar qad rostlayapti. Tumanda o'zbek, qozoq, qaraqalpoq, rus va tatar millatlari vakillari ahil-inoq yashashadi.

Konimexdan Tomdiga kelin bo'lib tushgan bugungi lavhamiz qahramoni katta leytenant Aygerim Ajigeldiyeva pedagogika oliygohini yakunlagan. U 2020-yilda Navoiy viloyati ichki ishlar organlari xodimalari safiga qabul qilindi. Ayni paytda Tomdi tumani IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori lavozimida xizmat qilib kelmoqda. Uning sa'y-harakat-

lari bilan joriy yilda 87 nafar ayolga moddiy-ijtimoiy, tibbiy-psixologik, huquqiy yordam ko'rsatildi.

«Sharq» ovul fuqarolar yig'inida istiqomat qiluvchi Aynur Jalgasova 4 farzandning onasi. U «Bersang – yeyman, bermasang – o'laman», deyidiganlar toifasidan emas. Mehnatdan qochmaydi. Bir necha yil avval «Amantay»

sanoat korxonasiga ishga joylashtirilgan edi. Turmush o'rtog'i spirtli ichimlikka ruju qo'ygani yetmaganday, ayolning pullariga ega chiqadigan, qarshilik qilsa kaltaklaydigan odat chiqardi.

Bundan xabar topgan katta leytenant Aygerim Ajigeldiyeva ro'zg'or yuki to'liq yelkasiga tushgan Aynur bilan suhbatlashdi, oiladagi janjallar sabablarini o'rgandi. Shu kuni uning tavsiyasi bilan Aynur-

ga himoya orderi rasmiylashtirib berildi. «Ovul yettligi» hamda mu-tasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda uning turmush o'rtog'i ishga joylashtirildi. Shu tariqa oiladagi nizolar bartaraf etildi.

Aygerim Ajigeldiyevaning tizimda ish boshlaganiga hali uncha ko'p bo'lmadi, ammo qisqa vaqt ichida tomdilik ayollarning ko'ngliga yo'l topdi. Aytib o'tish lozimki, ayrim mahalla va ovullar tuman markazidan 200-300 km uzoqlikda joylashgan. Tomdining qishi juda sovuq, yozi jazirama issiq. Ammo lavhamiz qahramoni qiyinchiliklardan cho'chimaydi.

Tumanda ko'pchilik ayollar chorvachilik bilan shug'ullanadi. Aygerim chorva mahsulotlarini qayta ishlash, jun mahsulotlaridan foydalangan holda to'qimachilikni yo'lga qo'yishni, ip yigirib, kashta tikish, milliy mahsulotlar sotuvini yo'lga qo'yishni targ'ib etyapti. Maqsadi – tomdilik ayollarning turmush sharoitlarini yaxshilash, bandligini ta'minlash.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

SPORT

HUDUDIIY BOSQICH YAKUNLANDI

Buxoro viloyati Futbol akademiyasi maydonida ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida o'tkazilgan «Ichki ishlar vaziri kubogi» turnirining guruh bosqichi o'yinlari yakunlandi. Mazkur musobaqada Farg'ona viloyati IIB, Surxondaryo viloyati IIB, Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti xodimlari hamda Buxoro viloyati IIB terma jamoalari o'zaro kuch sinashdi.



Buxoro viloyati.

Turnir qizg'in va murosasiz kechdi. Ayniqsa, so'nggi turda jamoalar final bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritish uchun jiddiy bahs olib borishdi.

Yakunda Buxoro viloyati IIB hamda Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti jamoalari Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan hal qiluvchi bosqichga yo'llanmani qo'lga kiritishdi.

Rinat RAJABOV,
podpolkovnik.

BAYRAMINGIZ
MUBORAK BO'LSIN!

*Chehrasidan oftob taft olar,
Alla aytsa, qushlar tin olar,
Qalbingizga muhabbat solar,
Betakrordir o'zbek ayoli.
Tinch bo'lsin der, yer-u samoni,
Bolam deya chekar jafoni,
Gullatishga qodir dunyoni,
Mardonadir o'zbek ayoli.*



Darhaqiqat, ayolni e'zozlash, unga ehtirom ko'rsatish o'zbek xalqiga xos fazilatdir. Bugun yurtimizda barcha sohada xotin-qizlarimizning o'rni ortib bormoqda. Islohotlarning asosiy mazmuni ham xotin-qizlarning yangi g'oya va tashabbuslar bilan chiqishlarini qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirok etishlarini ta'minlashdan iborat. Zero, inson qadrini ulug'lash, avvalo, ayolga hurmat va ehtirom, mo'tabar onalarimizni e'zozlash, munis opa-singillarimizni qadrlashdan boshlanadi. Ayollarning, xususan, qiz bolaning o'qib, oliy ma'lumotli bo'lishi, kasb-hunar egallashi oila baxti, farzandlar kamoli uchun, shu asosda butun jamiyat ravnaqi uchun xizmat qiladi.

Fursatdan foydalanib, aziz ayollarimizni 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan chin qalbdan tabriklayman. Barchangizga sihat-salomatlik, xonadonlaringizga tinchlik-farovonlik, fayz-u baraka tilayman. Hayotimiz quvonchi, fayz-u farishtasi bo'lgan muhtarama onaxonlar, opa-singillar, bayramingiz muborak bo'lsin!

Anvar AZIMOV,
jurnalist va teleboshlovchi.





DARYOSAN, AYOL!

Kimki boqsa ko'zlaringga ziyosan, ayol,
Go'yo gulsan, sertabassum ibosan, ayol
Qoshlaringga, ko'zlaringga nur bersa ham tun,
Dili pok-u mo'jizakor samosan, ayol!

Yetti xil rang kamalakdan, gullardan ifor
Olgansan-u musaffosan, safosan, ayol!
Ohu kabi nafissan-u, noziksan, hurkak,
Bolariga bol bergan – turfa gulsan ayol!

Bulbul olgan ovozingdan andoza bilsam,
Gullar aro mayin esgan sabosan, ayol!
Sochlaringni havas qildi majnuntol ko'rib,
Uyaldimi, qochdi lola, jafosan, ayol!

Kimdan olding sadoqatni, kim ulashdi ishq,
Ishqingda kim ado bo'lsa, fidosan ayol!
Qachon ko'rsang Rahimiyni, erka qushman deb,
Har sohada javlon urgan daryosan, ayol!

Olimjon RAHIMOV.

KASB FIDOYISI

ELNING DUOSI OLTIN

Inson qaysi sohada ishlamasin, boshqalarga foydasi tegsa, elning duo va olqishini olsa, bundan ortiq baxt yo'q aslida. Ichki ishlar organlari xodimlari ham hamisha xalq xizmatida yurib, el olqishiga musharraf bo'lishadi. Farg'ona viloyati IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi axborot texnologiyalari guruhi yetakchi mutaxassisi, kapitan Umarjon Mamadaliyev ana shunday fidoyi xodimlar sirasiga kiradi.

Quva tumanida tug'ilib o'sgan lavhamiz qahramoni 2010–2014-yillarda Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Farg'ona filialini, so'ngra IIV Akademiyasi Serjantlar tarkibini tayyorlash oliy kurslarini tamomlagan. Ichki ishlar organlaridagi faoliyatini Quvasoy shahar IIB Pasport bo'linmasida boshlab, ayni paytda viloyat IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasida davom ettiryapti.

U har kuni tongda Vatan xizmatiga otlanarkan, otasi Mahamadjon Haydarov, onasi Hafizaxon Haydarova hamda 80 yoshni qo-

ralab qolgan buvisi Sanobarxon momodan duo olib, ezgu niyatlar bilan ishxonasi tomon yo'lga tushadi.

Bugun Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasida fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida sayyor holda davlat xizmatlarini ko'rsatish amaliyoti yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu yumushni Umarjon siddiqdildan bajarmoqda. U boshqarmaga kelib tushgan murojaatlar asosida maxsus xizmat avtomashinasida fuqarolarning yashash manzillariga borib, sayyor davlat xizmatlarini ko'rsatib kelyapti.

Masalan, joriy yilning o'tgan davrida 202 nafar fuqaroning uyiga borib, ularga ID-kartalarini rasmiylashtirib berdi. O'z uyidan chiqmagan holda, bunday xizmatdan bahramand bo'lgan yurtdoshlarimiz Umarjon Mamadaliyevni duo qilib, ezgu tilaklar bildirishmoqda. «Oltin olma, duo ol» deganlaridek, nuroniylarning ezgu tilaklari soha fidoyisiga qo'shimcha kuch va motivatsiya beradi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



QO'SHQANOTLAR

«BIR OLMANING IKKI YUZI»

Tog'asining o'g'li, mayor O'ktam Xayrullayevga havas qilgan Mehribon kelajakda ichki ishlar organi xodimi bo'lishni ko'ngliga tugdi. Shu maqsadda IIV Akademiyasiga o'qishga kirib, taqdirni ko'ringki, shu yerda bo'lajak turmush o'rtog'i bilan yaqindan tanishib, qalb rishtalarini bog'lad. Kelajakda oila qurib, yurt osoyishtaligi yo'lida bir tan-u bir jon bo'lib xizmat qilishga ahd qilishdi.

Oradan yillar o'tdi. Ta'lim muassasasini muvaffaqiyatli tamomlagan ikki yosh oila qurishdi. Oila boshlig'i Mehribon ilk xizmat faoliyatini Angren shahar IIB EKG eksperti lavozimida boshladi. Ustozi, hozirda iste'fodagi podpolkovnik Sardor Shokirovdan xizmat sirlarini o'rganib, mahoratini oshira bordi.

Hozirgi paytda Bekobod tumani IIB JQB tezkor vakili lavozimida faoliyat olib borayotgan katta leytenant M.Tursunmurodov sportning yengil atletika va qo'l jangi turlaridan tashqari, stol tennisi



bilan ham shug'ullanadi. Shuningdek, xizmatdan bo'sh paytlarida badiiy asarlarni mutolaa qiladi.

Oila bekasi, katta leytenant Nodira Bobojonova esa to'ydan keyin turmush o'rtog'i bilan

bir joyda, ya'ni Bekobod tumani IIBda voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor sifatida xizmatni davom ettirdi. Ustozlari ko'magida amaliy tajriba va ko'nikma orttirib, jamoada o'z o'rnini topdi. Hozirda tug'uruq ta'tilida bo'lishiga qaramasdan, o'z kasbining mas'uliyatini bir zum bo'lsa-da, unutmagan yo'q.

Otam, mayor Muhiddin Qorjovov ko'p yillardan beri ichki ishlar organlarida faoliyat olib boradi, – deydi Nodira. – U kishi ko'rsatgan yo'l-yo'riqlar xizmatda doim asqatdi. Buning ustiga, turmush o'rtog'im bilan birga soha vakili bo'lganimiz menga yanada kuch bag'ishlaydi.

Mehribon Tursunmurodov ham rafiqasining bu fikrini shunday tasdiqladi:

– Er-xotinning bir sohada xizmat qilishi bir-birini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Shu sababli oilada ham o'zaro hurmat-izzat hukmron bo'ladi.

Hozirda Muhammadiso ismli farzandini kamolga yetkazayotgan osoyishtalik posbonlari bir kasb egalari bo'lib, elga nafi tegayotganlaridan benihoya baxtiyorlar.

Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.



■ Ферганская область

ДИАЛОГ С МОЛОДЕЖЬЮ



В Новом Узбекистане подрастающему поколению уделяется особое внимание.

На местах регулярно проводятся встречи руководителей с молодежью. В частности, начальник УВД Ферганской области генерал-майор Азизбек Икрамов провел встречу со студентами Ферганского государственного университета. Во время беседы были заслушаны их предложения и обращения. Для решения поднятых вопросов даны поручения ответственным лицам.

На мероприятии выступили молодые люди, проявляющие интерес к службе в органах внутренних дел. Достигнуто соглашение о заключении меморандума о сотрудничестве между областным управлением внутренних дел и университетом.

Подобные мероприятия несут в себе большой воспитательный потенциал.

Соб. корр.



■ Джизакская область

УВАЖЕНИЕ ЗАСЛУЖИТЬ НЕПРОСТО

Ближе к вечеру, завершив обход закрепленной территории, инспектор профилактики правонарушений СОБ ОВД Зафарабадского района капитан Мирзохид Шоназаров вошел в служебный кабинет в здании схода граждан. Тут раздался звонок мобильного. Из трубки доносился плачущий голос женщины, которая просила о помощи.

Когда инспектор прибыл по адресу заявительницы, у ворот дома увидел женщину с двумя детьми. Выяснилось, что ее супруг, Ж. С., с братом, К. С., где-то выпили и решили продолжить застолье дома. Однако женщина начала жаловаться на нехватку средств для хозяйства. В ответ на это муж и его брат стали ее оскорблять и собирались основательно проучить.

Инспектор профилактики принял меры к нарушителям. Суд квалифицировал действия Ж. С. и К. С. как мелкое хулиганство и назначил им 8 суток административного ареста. Прошло уже 2 месяца, братья не употребляют спиртные напитки, в семье порядок.



Капитан помог и другому жителю отказаться от вредной привычки, устроив его на работу на ковровую фабрику. Также в ходе ночной проверки ему удалось установить, что местный житель И. К., находившийся под административным надзором, был в состоянии алкогольного опьянения. Ему продлили срок надзора.

Мирзохид Шоназаров благодаря профилактическим мероприятиям в 2024 году предотвратил совершение преступлений на территории махалли Ёркин. В прошлом году его усилиями оказано содействие 70 жителям в получении кредитов и налаживании предпринимательской деятельности, 94 – в получении материальной помощи для покрытия расходов на обучение, 25 семьям оказана социальная помощь. Кроме того, 71 гражданин был обеспечен постоянной работой. Мероприятия в данном направлении активно продолжаются.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
соб. корр.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

4-MART – QOROVUL QO'SHINLARI TASHKIL TOPGAN KUN

SHIJOATLI ZULAYHO

Qadimiy va hamisha navqiron Samarqandning Kattaqo'rg'on tumanida tug'ilib o'sgan Zulayho Qodirovani qorovulbozorliklar nafaqat oqila va sarishta kelin, balki osoyishtalik posboni sifatida juda hurmat qilishadi. U 2004-yildan beri IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli 7536-harbiy qismda yigitlar bilan yelkama-yelka turib xizmat qilib kelyapti.



Dastlab faoliyatini 1-o'qchi vzvod shaxsiy tarkibini hisobga olish bo'yicha ish yurituvchi vazifasida boshlagan edi. Yillar o'tgan sayin tajribasini boyitib bordi. Ayni paytda ushbu harbiy qism 3-batalyonida mas'ul ijrochi lavozimida xizmat qilib kelmoqda.

III darajali serjant Zulayho Qodirova nazoratchilar vzvodi 3-toifali nazoratchisi lavozimida-gi faoliyati davomida ko'p bora jangovar xizmatga tayinlangan. U o'z xizmat vazifasini aniq bilgani va sergakligi tufayli jazoni ijro etish koloniyasiga fuqarolarni uchrashuvga kirgizish vaqtlarida taqiqlangan buyumlarni topib, tegishli dalolatnoma tuzib, muassasa ma'muriyatiga topshirgan. Shu tariqa sodir etilishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarning oldini olgan. Shuningdek, yosh harbiy xizmatchilarni o'z burchiga sadoqat ruhida tarbiyalashga, ularga kasb mahorati sirlarini o'rgatishga ham o'z hissasini qo'shmoqda. Jangovar xizmat faoliyatidagi yuqori natijalari uchun IIV, Qorovul qo'shinlari qo'mondonligi va qism

qo'mondonligi tomonidan bir necha marotaba rag'batlantirildi.

– Zulayho Qodirova jonkuyar harbiylarimizdan biri. Samarali xizmati uchun jamoamizda hurmat e'tibor qozongan, – deydi batalyon komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari, kapitan Sanjar Normurodov.

– Men hayotimni kasbimsiz tasavvur eta olmayman, – deydi Zulayho. – Ona Vatanimga xizmat qilayotganimdan faxrlanaman.

Zulayhoning turmush o'rtog'i Avaz Qodirov boshqa kasb sohibi bo'lsa-da, uning xizmatini qadrlaydi. Oiladek muqaddas maskanni bir zum ham e'tibordan chetda qoldirmagan rafiqasi Zulayho bilan hamijihatlikda farzandlari Kamolidin, Mohinur va Maftunalarni yaxshi umidlarda voyaga yetkazishmoqda.

III darajali serjant Zulayho Qodirova vazifasiga hech qachon yuzaki yondashmaydi, qo'l uchida ishlamaydi. U oilasini, ro'zg'orini badastir tutib, kasbining mas'uliyatli yukini yelkasida ko'tarib kelyapti. Shu bois ham qahramonimizga havas qilsa arziydi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

YANGI O'ZBEKISTON – YANGI ICHKI ISHLAR ORGANLARI



MOTOPATRULLAR: TEZKOR VA QULAY

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan bugungi davrda ichki ishlar organlari faoliyati zamon talablariga mos holda takomillashib bormoqda. Xususan, jamoat tartibini saqlashga bevosita mas'ul bo'lgan patrul-post xizmatini sifat jihatidan yuqori bosqichga ko'tarish maqsadida har tomonlama qulay va tezkor zamonaviy transport vositalaridan keng foydalanish yo'lga qo'yilmoqda.

Ayni kunlarda Farg'ona hamda Marg'ilon shaharlari ko'chalarida motoskuter boshqarib yurgan xodimlarga ko'zingiz tushadi. «Xavfsiz shahar», «Xavfsiz mahalla» tamoyillari asosida jamoat tartibini saqlashda motopatrullar faoliyati yo'lga qo'yilgach, qisqa davrda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikni jilovlashda vaziyat ijobiy tomonga o'zgarmoqda.

– Motopatrul guruhlariga 26 nafar xodim jalb etilgan bo'lib, ularga zamonaviy motoskuterlar birlashtirilgan, – deydi viloyat IIB JXX JTSB patrul-post batalyoni otryad komandiri o'rinbosari, kapitan Mahmudjon Tojaliyev. – Ular 6 ta yo'nalishda eng gavjum ko'chalar, avtopatrullar yurishi imkoni bo'lmagan ko'p qavatli uylar orasida xizmat olib boradi. Zamonaviy skuterlar voqea joylariga tezkorlik bilan yetib borish va hududlarni aylanishda juda qo'l kelyapti.

Farg'ona shahrining «Shakarqishloq», «Yangisoy», Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiy nomli mahallalarida xizmat olib borayotgan motopatrullar voqea joyiga o'z vaqtida yetib borib, qator jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olishga erishdilar. Motopatrul xodimlari ko'p qavatli uylar orasida aylanib yurganida, basharti biror jinoyat yoki tartibbuzarlikka ro'para kelishsa, tezda vaziyatni nazoratga olib, aloqa vositalari orqali avtopatrullarga xabar bermoqdalar. Natijada sodir bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarning oldi olinyapti.

– Hududimiz asosan ko'p qavatli uylardan iborat, Farg'ona shahrining eng gavjum yo'nalishi sanaladi, – deydi safdor Ahliyor Tolipov. – Har kuni xizmat jarayonida 20 tadan ortiq huquqbuzarlik holatlarini aniqlab, tegishli tartibda choralar ko'ryapmiz. Ko'chalarda aylanib yurarkanmiz, fuqarolar bizga ishonch bilan qarab turganiga guvoh bo'lamiz. Bolakaylar havas qilib, qo'llarini silkitadilar, nuroniylar duo qilishadi. Shunday pallada el-yurtga nafimiz tegayotganidan, xalqimiz ishonchini oqlayotganimizdan faxrlanib ketamiz.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATIDAN

SHOHSUPADA KUCHLILAR

IIV Tarkibiy bo'linmalari xodimlari birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi hamkorligida 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan xotin-qizlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi va ommaviy sportni keng targ'ib qilish maqsadida shaxmat, shashka va stol tennisi sport turlari bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi.

Qizg'in bahs va kurashlarga boy bo'lgan musobaqa yakunida g'oliblar va sovrindorlar aniqlanib, diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.



QIZING BO'LSA, SHUNDAY BO'LSIN!

Sirdaryo viloyatining Guliston shahrida tug'ilib o'sgan Muqaddas oilada yetti qizning biri. U IIV Akademiyasida o'qib, egniga ichki ishlar organlari formasini kiyib kelganida, otasi Muhammadi aka va onasi Xosiyat opaning ko'zlarida sevinch yoshlari qalqan edi.



Xizmat faoliyatini Guliston shahar IIBda boshlab, keyingi hayoti va xizmati poytaxtda davom etayotganiga ham qariyb 23 yil bo'libdi.

Hozirda podpolkovnik M. Avezova Bektemir tumani IIOFMB 3-sonli IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori. Uning xizmat hududiga 5 ta – «Majnunol», «Mirishkor», «Rohat», «Iyk ota» va «Zilola» mahallalari kirib, ularda 12 mingga yaqin xotin-qizlar istiqomat qiladi.

Joriy yilning o'tgan 2 oyi mobaynida mahallalar faollari hamda profilaktika

inspektorlari hamkorligida 3 ta nizoli oila yarashtirilib, 7 nafar fuqaroga himoya orderi berildi. Shuningdek, 35 nafar xotin-qizning yashash sharoiti o'rganilib, ulardan 2 nafari – O. Yakovenko va M. Rahmonqulovning ish bilan ta'minlanishiga va G.Sarsenovaga farzandlari uchun guvohnoma olishda amaliy yordam ko'rsatildi.

– Mamlakatimizda Prezidentimiz tomonidan xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatimiz hayotidagi ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish,

turli sohalarida o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan, – deydi podpolkovnik M. Avezova. – Mana shunday e'tiborga «labbay» deya javob berib, nozik xilqat egasi bo'lgan ayollarimizga ko'makdosh bo'layotganimdan, shu yurt koriga yarayotganimdan ich-ichimdan mamnun bo'lam.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

HIKMATLI DUNYO

HAYOTNING BURILISH NUQTASI

Ayol – umr yo'ldoshi. Yaxshisi bilan safar mazmunli, eng muhimi, bexatar bo'ladi.

Bolaning yig'isidan ovoz chiqadi, onaning yig'isidan esa tutun. Hech bir ona bolam, deb yig'lamasin.

Dunyoni kunduzi chiroq yoqib qidiring, onadek mehribon odamni topolmaysiz.



Eng kuchli ayg'oqchiam ayoldek bo'lolmaydi. Faqat ona bolasini sotmaydi. Chunki bola uchun faqat onalargina o'limga tik borishadi.

Ota bolalariga tarbiyani boshqalarni, ona esa o'zini misol qilib, amalda ko'rsatib, tarbiyalaydi. Afsuski, buni farzandlar yoshi ulg'aygandagina tushunishadi, xolos.

Bu dunyo onasiz tuzsiz oshga, ko'rinishi esa rangsiz televizorga o'xshaydi.

Shuhrat RO'ZIYEV,
o'z muxbirimiz.



Женщины, изменившие мир



Галина Анатольевна Пугаченкова (1915 – 2007гг.) – выдающийся археолог и искусствовед, чьи работы оказали огромное влияние на изучение истории и культуры Центральной Азии. Она посвятила свою жизнь исследованию древнего и средневекового искусства региона, оставив после себя богатое научное наследие.

Пугаченкова была не просто ученым, но и первопроходцем. В 1937 году окончила архитектурное отделение Ташкентского политехнического института и аспирантуру по кафедре истории архитектуры Центральной Азии. С 1946 по 1961 годы возглавляла VII архитектурный отряд Южно-Туркменстанской археологической комплексной экспедиции (ЮТАКЭ), а в 1959 году создала Узбекстанскую искусствоведческую экспедицию (УзИскЭ), которой руководила вплоть до 1984 года.

Работы Пугаченковой охватывают широкий спектр тем – от архитектуры древней Бактрии и Согдианы до искусства эпохи Темуридов. Ее труды переведены на многие языки мира и продолжают вдохновлять ученых на новые исследования.

Учебные курсы

ПРАВА ЧЕЛОВЕКА НЕПРИКОСНОВЕННЫ

Национальной программой образования в области прав человека в Республике Узбекистан предусмотрен комплекс мероприятий, в том числе организация на постоянной основе учебных курсов по борьбе с применением пыток для сотрудников органов, осуществляющих доследственную проверку, дознание, предварительное следствие, учреждений по исполнению наказания, судей.



– Межведомственные учебные курсы на тему «Борьба с применением пыток: международная практика и национальный опыт» проведены в Джизакской области для работников следственных подразделений, уголовного розыска, инспекторов профилактики, учреждений по исполнению наказания ОВД, прокуратуры, судебной системы, – говорит доктор юридических наук, профессор, полковник Алимжан Матчанов. – Очередные курсы

организованы 26–27 февраля для 65 представителей ОВД, прокуратуры и судей в Сырдарьинской области. Спикерами были специалисты Национального центра Республики Узбекистан по правам человека, Академии и Института повышения квалификации МВД, Правоохранительной академии, Института государства и права АН. Рассмотрены сущность и содержание Конвенции ООН против пыток, жестоких, бесчеловечных или унижа-

ющих достоинство видов обращения и наказания, Факультативного протокола к данной Конвенции, а также международные стандарты содержания под стражей, гарантии прав заключенных, в том числе нашедшие отражение в законодательстве Узбекистана. На ближайшее время запланировано проведение аналогичных курсов в Бухарской и Самаркандской областях.

Соб. корр.

Кибербезопасность

ВАЖНЫЙ УРОК ДЛЯ ШКОЛЬНИКОВ



Центром кибербезопасности Оперативно-розыскного департамента МВД Республики Узбекистан проводятся мероприятия с целью информирования подростков об угрозах киберпреступлений.

Очередные мероприятия прошли с участием учащихся общеобразовательных школ Юнусабадского района города Ташкента. Специалисты провели лекции на тему «Безопасность в киберпространстве», разъяснили необходимость соблюдения осторожности при использовании современных гаджетов.



Были освещены и такие актуальные темы, как кибербуллинг (проявление оскорблений, угроз в цифровой среде), недопустимость беспечного отношения к персональным данным, негативные последствия азартных онлайн-игр.

Участники получили ответы на интересующие их вопросы,

а некоторые из них рассказали о киберсобытиях, с которыми они столкнулись. Эксперты дали практические рекомендации о том, как действовать в подобных ситуациях, какие меры нужно предпринимать для защиты от киберпреступлений.

Соб. корр.



IKKINCHI ISTE'DOD

MO'YQALAM TUTGAN QIZ



Jizzax shahar IIB 1-sonli IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektori Kamola Qilicheva Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetining Jizzax filialida tez-tez talabalar o'rtasida huquqiy madaniyatni oshirishga qaratilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarni uyushtirib, yoshlarga jinoyat sodir etish oqibatlarini tushuntiradi.

2024-yilda oliy o'quv yurti talabalari tomonidan jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi. Katta leytenant mazkur natijani universitet mutasaddilari hamda bir qator davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ya olgani bilan izohlaydi.

E'tiborlisi, Kamola Qilicheva nafaqat zimmasidagi vazifalarni a'lo darajada uddalamoqda, balki IIV Akademiyasi jinoyat huquqi kafedrasida boshlig'i, yuridik fanlar doktori, podpolkovnik Mahmud Qalandarov rahbarligida ilmiy ish yoqlab, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori maqomiga erishishni rejalashtirgan.

Ta'kidlash kerak, uning ijodiy izlanishlari mutaxassislar tomonidan ijobiy baholangan. Chunonchi, o'tgan yili poytaxtimizda bo'lib o'tgan O'zbekiston-Fransiya hamkorlikdagi ilmiy konferensiyasida «Yilning eng yaxshi izlanuvchisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Bundan tashqari, maqolamiz qahramoni tasviriy san'at shaydosi. Qalbini hissiyot-

lar to'ldirganida, nimadandir ta'sirlanganida qo'lga qalam tutadi. Uning chizganlarini kuzatar ekansiz, barcha ijodkor insonlar singari borliqni o'zga cha tasavvur qilishini ilg'aysiz.

Nazarimizda, Kamola aks ettirgan qirg'oqdan uzoqlashayotgan egasiz qayiq, oy nurida daraxt shoxida o'tirgan o'smir, qaroqlari ma'yus qiz, tog'lar ortiga intilayotgan quyosh tasvirlari qahramonimizning ko'nglidan kechgan oniy tuyg'ularni ifodalagan. U qo'lga qalam tutganda ajib bir yengillikni his etadi. Shu bois, vaqt topishi bilan oppoq qog'ozga dili va tafakkuridagi injularni to'kadi...

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.
Jizzax viloyati.

KECHINMA

BAHOR EPKINI

Tong quyoshi ko'z ochishga erinib turgan maysalarning boshini silaydi. Iliq mehrdan ular asta-sekin bosh ko'taradi. Tog' etaklarida o'ynab o'ynab oqayotgan jilg'alarning shildirashi borliqni tutadi. Daraxt kurtaklari chirt-chirt yorilib, yorug'likka intiladi. Boychechak, chuchmomalar ochilmoqqa chog'lanadi. Ha, ular biz sog'inib kutgan bahorning eshik qoqayotganidan darak bermoqda.

Xalqimizning eng yaxshi udumlari, an'analari ham bahordan boshlanadi. Hovlilar-ko'chalar supiriladi, ko'chatlar ekiladi. Momolarimiz sumalak pishirishga kirishadilar. Bobodehqonlar yerga qut-baraka urug'ini qadashadi.

Har tong bahorning mayin epkini dimoqqa urilganini his etarkanman, atrofqa boqaman. Odamlar qiyofasida samimiylik inganini, ko'klam-



Shu tobda xayolimni olis bolalik onlari chulg'aydi. Havo ilib, daraxtlar kurtak chiqara boshlaganda, qirma-qir chopib, bahor elchilarini qidirardik. Toshlar orasida yashirib turgan boychechakni topib olsak, quvonchimiz ichimizga sig'masdi. Uni uzib olib, onalarimiz, momolarimiz huzuriga oshiqardik. Ular gulni hidlab, bu bahorga ham eson-omon yetib kelganiga shukrona aytishar, boychechakni ko'zlariga surtib, bir-birlariga omonlik tilashardi.

ning nafasi dillarga yaxshilik solayotganini payqagandek bo'laman. Va beixtiyor, bahor bilan bog'liq boqiy qadriyatlarimiz yanada keng quloach yoyishini, oramizda mehr-oqibatli insonlar ko'payishini tilab, duo qilaman.



Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

BIR TUMAN TARIXI

Romitan tumani Buxoro viloyatining markazida joylashgan bo'lib, 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. U viloyatning Peshku, Vobkent, Buxoro, Jondor tumanlari, Xorazm viloyati hamda Qoraqalpog'iston va Turkmaniston Respublikalari bilan chegaradosh.

Romitanga oid dastlabki yozma ma'lumotlarni buxorolik mashhur muarrix Narshaxiy «Buxoro tarixi» (943-944-yillar) asarida yozib qoldirgan: «Romitan katta bir ko'handizga ega va mustahkam bir qishloq bo'lib, Buxorodan qadimyroqdir. Yana qishloq qadimgi vaqtlarda podshohlarning turarjoylari bo'lgan. Islom davlatiga o'tgandan keyin ham shunday bo'lib turgan. O'sha davrda Afrosiyob har vaqt bu viloyatga kelganida shu qishloqdan boshqa joyda turmagan».

Narshaxiy Afrosiyob bilan bog'liq shunday bir rivoyatni keltiradi: «Afrosiyobning qizi bosh og'rig'i dardiga



chalinadi va shu vaqtlarda Romitan hududlariga kelib qoladi. Bu yerning ajoyib havosi tufayli u dardidan forig' bo'ladi. Shu bois bu maskanni «oromitani» – ya'ni, «tan oromi» deb ataydi. Keyinchalik xalq orasida bu yerning nomi «Romitan» sifatida mashhur bo'lib ketadi.

Bundan tashqari, Romitan «roh» – «yo'l» va mitan urug'i nomi asosida paydo bo'lgan, deyiladi. Shu taxminga ko'ra, «yo'l chetidagi mitan urug'i yashaydigan qishloq yoki joy» ma'nosini anglatadi. Qolaversa, Buxoro vohasida «Rometi» degan kichkina bir urug' bo'lgan, Romitan o'sha etnonimdan

kelib chiqqan bo'lishi ham mumkin. Buxoroning 11 darvozasidan biri ham Romitan darvozasi, deb atalgan. Istaxriyning yozishicha, O'g'lon darvozasining oldingi nomi Romitan, deb yuritilgan.

XVI-XIX asrlardagi manbalarda hozirgi Romitan tumani Somjan tumani, deb atalgan. Bu Somjan kanalining nomi hamdir. Keyinchalik Romitan kanali, deb ataladi.

Hududda Xo'ja Ali Romitaniy, Boboyi Samosiy, Xo'jagon kabi naqshbandiya tariqati vakillari ziyoratgohlari joylashgan. Xo'ja Za'faron, Xo'ja Ubbon maskanlari esa shifobaxshlik xususiyatiga ega. Ayni paytda ichki turizmni rivojlantirish maqsadida tumanda Bukhara Desert Oasis & Spa turistik va mahalliy dam olish maskani hamda shahar markazida Romitan sayilgohi tashkil etilgan.

Mirzoqul AHADOV
tayyorladi.



MA'RIFAT BO'STONI

MILLAT QAYG'USI

HAMISHA BOR BO'L, ONA TILIM!

Millatning ma'naviy boyligi bo'lgan til nafaqat muomala vositasi, balki uning madaniyati, urf-odati, turmush tarzi, tarixidir. Boshqa millatlarning tillariga hurmat esa o'z navbatida o'zaro tushunishga, muloqotlarga imkoniyat yaratadi. Ona tilning saqlanib qolishi uchun qayg'urish millat kelajagi uchun qayg'urish, demakdir.

Afsuski, bugungi kunda ona tilimizning qadrini tushirayotgan, uni buzib, sheva va lahjalarini o'rinsiz qo'llayotganlar ham yo'q emas. Bozorlardagi, ko'chalardagi, do'kon peshtaxtalaridagi, reklama afishalaridagi yozuvlarda yo'l qo'yilgan qo'pol xatolar, hatto ayrim xususiy OAV va nashriyotlarda tilimizni buzib, savodsizlarcha yozilayotgan iboralarni ko'rib, millat sha'nini, tilimiz istiqbolini o'ylab, ko'nglingiz ranjiydi.

Aziz millatdosh, ona tilimiz obro'si shu yo'sinda tushib

ning madaniyati, urf-odatlari, rasm-rusumlarini saqlab qolishni anglatadi. Chunki millat taqdiri uning tili taqdiri bilan bevosita bog'liq. Shunday ekan, jonajon tilimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yanada yuksaltirish, uni taraqqiy etgan tillar safiga qo'shish haqida har birimiz qayg'urishimiz kerak. Buning uchun, avvalo, tilimizga chuqur hurmat bilan yondashishimiz lozim.

Yaqinda xorijiy atamalarining o'zbekcha muqobillari jamoatchilikka taklif etilayot-

taqdim etilayotgan atamalarining milliy muqobillari bo'yicha boshqa fikr va mulohazalarni ham eshitishga tayyor.

Aytish joiz, keyingi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlariga monand nomlar qo'yilmoqda. Ular «Davlat tili haqida»gi qonun talablariga to'la javob beradi. Ammo «Evos», «Chicken», «Miss Sanam», «Elegant», «Eldorado» singari nomlar ustida jiddiy o'ylab ko'rish vaqti keldi. Axir har qanday nom qo'yishda andazalar, talablar inobatga olinishi kerak-ku?! Zero, nom qo'yishda milliylik, qisqalik, aniqlik, tushunarlilik tamoyillariga rioya qilish zarur. Aksincha, xorijga taqlid, ko'r-ko'ronalik nusxa olish juda ayanchlidir.

Yaqinda ko'p qavatli uylardan birining birinchi qavatidagi peshlavhani ko'rib yoqamni ushladim. Unda rus tilidagi «Берегите вашу мать, природу!», chaqirig'i o'z tilimizga «Tabiatni asra, onangni!» deb o'girilganiga nima deysiz?! Ekologiyani asrashga da'vatmi bu yoki so'kinishmi...

O'zbek tili dunyodagi eng boy va chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan buyuk tillardan biridir. Shunday ekan, tilimizning sofliqi, tabiiyligi uchun kurashish, uning buloqdek musaffoligini, o'ziga xos tarovatini saqlab qolish barchamizning muqaddas burchimizdir.

Nargiza FAYZIYEVA,
o'zbek tili va adabiyoti
o'qituvchisi.

МОХЛАРОЙИМ



XIX asrning birinchi yarimida yashab ijod etgan mashhur shoira, davlat arbobi, madaniyat va adabiyot xomiyisi Moxlaroyim – Nodira, Comila, Maknuna taxalluslari bilan ijod qilgan. U oilaviy silsilasiga kura, Bobur nasliga mansub bulib, ota-onasi ham uz davrining etiborli kishilari bulgan. She'riyatga juda erta xavas kuygan Moxlaroyim Navoiy, Jomiy va Bedil kabi allomalarning asarlarini mexr bilan mutola qilardi.

1807 yilda Moxlaroyim Marfilon xokimi Umarxon bilan turmush kuradi. Kup utmay 1810 yili Umarxon Kuchon xonligi taxtiga kutariladi. Moxlaroyimning shoira sifatida keng kulamda ijod mайдонига кириб келиши ham шу йилларга tugri keldi.

Nodira Kuchonda xon saroyida ekan, davlat ishlaridan ham voqif bulib, xususan, adabiyot va san'at ahli bilan yaqinlashishga, kup asrlik adabiyotimiz yulidan boriб, davr she'riyatini yuqori kutarishga astoydil kishiadi. Moxlaroyim va Umarxonning oilasida ikki ugil Muxammad Alixon va Sul-ton Muxmudxonlar usib-ulgayardi. Nodira 1822 yili davlat boshqaruвига киришган esh ugli Muxammad Alixonning eniga кириб, мамлакатни бошқариш ишида фаол иштирок эта бошлайди.

Moxlaroyim davlat va мамлакат ishlarini tadbir va adolat bilan idora қилишда xomiylik namunalарини kursatarкан, бу йилларда мамлакатда нисбий осойишталик сақланди. Kushi ulkalar va ularning hukmdorlari bilan savdo-sotiq va boshqa soxalarда келишувлар амалга оширилади. Nodira мамлакатдаги қурилиш, маданият ва адабиёт ривожига yulida tinim билмайди.

1992 yilda мамлакатимизда shoira tavalludining 200 йиллиги Kuchon, Andijon va boshqa шахарларда кенг нишонланиб, пойтахтимизда utkazilgan илмий анжуманлар ва тантанали кечалар билан yakunланди. Badiiy adabiyotда esa Nodira образи гавдалантирилди, драма, роман, кинофильмлар яратилди. Шахар ва қишлоқларда унинг номи билан аталган кинотеатрлар, kuchalar, kutubxonalар va маданият масканлари mavjud.



ketaversa, uni qay ahvolda kelajagimiz egalari qo'lga topshiramiz? Ayting-chi, chet tillardan kirib kelayotgan so'zlarni shundayligicha qabul qilishimiz kerakmi yoki qo'lni qo'lga berib millatning iqboli uchun kurashmog'imiz afzalmi?

Tilni saqlab qolish millat-

ganligi haqida xabarni o'qib, to'g'risi xursand bo'ldim. Atamalar komissiyasining ishchi kengashi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti olimlari tomonidan bir qancha muqobil-lar ko'rib chiqilgan. Bu yakuniy variant emas, ishchi organ

TAMA' BALOSI

Bir sichqon qo'qonni ko'rgan zamon:

«Yohu, insonlar qanday hiylakordurlar. Ajabo, manga ov uchun ichiga bir parcha yog' qo'ymishlar-da, mani aldab qo'qonga tushirmak istarlar. Amon, yo Rab! Man yaxshi bilurmanki, bu ov emas, maning uchun qurilmish bir tuzoqdur. Xayr, bu hiyla ila mani alday olmassiz», – deb qaytub ketmak bo'ldi. Shul vaqt bir oz o'ylab, o'z-o'ziga dedi-ki: «Bu yog'dan yemasam ham bir oz iskamak



mumkin. Ammo man yog' isini ko'p yaxshi ko'raman. Kel, buni iskamakda nima zarar bor», – dedi-da, qo'qon yoniga kelub, yog'ni iskey boshladi. Yog'ning isi dumog'iga xush kelub, tez-tez iskab turgan zamon burni yog'ni turtib yuborub, qo'qon «shart» etub ketdi. Bechora Sichqon tama' balosiga giriftor bo'lib qoldi.

Bayt

Oz tama' ko'b

zararlari ketitur,

Nafsini tiymagan o'zin yitirur».

Abdulla AVLONIY.



ҚАЛБ ҚЎРИ ҚАЙНОҚ

Ҳақиқий инсон бу ёруғ дунёда мудом эзгуликка интилиб яшайди. У эл-юрт равнақи йўлида фидойиларча ҳалол меҳнат қилишни, одамларга яхшилик улашишни, ўзидан яхши ном қолдиришни ўз бурчи, деб билади. Ана шундай қалб қўри қайноқ, камтар ва самимий инсонлардан бири, журналист сифатидаги фаолияти – «Postda» газетаси ва «Qalqon» журнали билан чамбарчас боғлиқ бўлган Саъдулла Шодиевдир.

У қаерда ишламасин, ўз вазифасини бажариш билан бирга, туман ва вилоят газеталарида ранг-баранг мақолалари билан қатнашиб турди. Бир муддат Тошкент тумани «Шонли меҳнат» газетасида мухбир, «Тошкент оқшоми» газетасида мухбир, катта мухбир, бўлим мудир бўлиб ишлади. 1995 йилда ИИБ Бирлашган тахририятига мухбир лавозимига қабул қилиниб, пенсияга чиққунга қадар Бирлашган тахририятда бўлим мудир лаво-

зимида 2013 йилгача самарали ижод қилди.

У нашрларда чоп этилган ўқимишли, ранг-баранг материаллари орқали халқимизнинг ички ишлар органлари фаолияти билан яқиндан таништирди. Айниқса, тизимдаги соҳавий хизматларда амалга оширилаётган ислохотлар, ҳуқуқ-тартибот побонларининг юртимизда тинчлик ва осойишталикни



сақлаш, ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш, жиноятчиликка қарши курашиш борасидаги саъй-ҳа-

ракатларини атрофлича ёритиб борди.

С.Шодиев ҳамкасблари орасида касб маҳорати, камтарлиги, меҳнатсеварлиги, оғир-босиқлиги билан ҳурмат қозонди. Газета саҳифаларини пишиқ-пухта материаллар билан таъминлашда муносиб ҳисса қўшди. Унинг серқирра ижод маҳсули тахририят томонидан уюштирилган турли танловларда ўзининг муносиб баҳосини топа олди.

Фуқароларнинг ҳуқуқий маданияти ва саводхонлигини ошириш бўйича эълон қилинган туркум материаллари эса республика Олий ҳўжалик суди ва журналистларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш жамғармаси томонидан ташкил этилган республика «Ҳуқуқ ва бурч» танловида

совринли ўринга лойиқ топилган. Шунингдек, Ўзбекистон Журналистлар ижодий уюшмасининг «Ватан азиз, жасорат мангу» республика танловида ғолибликни қўлга киритган. Танланган детектив асарлари «Бузғун» тўпламида чоп этилган.

Ҳаётнинг суронли денгизиде тобланган устоз ўзининг метин иродаси, ижод йўлида жонфидолиги билан ёш авлодни тарбиялаш борасида собитқадам бўлди. Бирлашган тахририятнинг катта ижод аҳли тасаввуриде Саъдулла ака ростгўй, самимий, оқни оқ, қорани қора, дея олган мард инсон сифатида гавдаланади. Самимий ва талабчан устоздан ҳозир ҳам ижодий масалаларда маслаҳат, йўл-йўриқ сўраб тураман.

Азизжон ФАЙЗИЕВ,
подполковник.

YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

SPORTDA CHEMAION, XIZMATDA ILDAH

Muxlisa o'n yoshidan sambo, milliy kurash bilan shug'ullana boshladi. Kundalik mashg'ulotlar, bellashuvlar uni jismonan tobladi, mahoratini oshirdi. Avval tuman, viloyat, so'ngra respublika musobaqalarida muvaffaqiyatli qatnashdi. Shundan so'ng murabbiyi, xalqaro toifadagi sport ustasi Dilfuza Rahmatovaning sa'y-harakatlari bilan xalqaro turnirlarda ham o'z omadini sinab ko'rishga ahd qildi va nufuzli musobaqalarning g'olib va sovrindorlari safidan joy oldi.

Urganch davlat universitetining jismoniy madaniyat fakultetini tamomlagan Muxlisa Qodirberganova Xorazm viloyati IIB Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar otryadiga katta mutaxassis lavozimiga xizmatga qabul qilinganida yurt tinchligi, xalq osoyishtaligini ta'minlashdek mashaqqatli vazifani er-kaklar bilan yonma-yon turib ado etish unga oson bo'lmadi. Lekin xizmat qiyinchiliklarini sabr-matonat bilan yengib o'tishga intildi. Bunda unga ustози – leytenant Karl Atayev yaqindan yordam berdi, yo'li-yo'riq ko'rsatdi. Natijada u qisqa vaqt ichida mustaqil ish yurita oladigan, zimmasidagi topshiriqlarni o'z vaqtida bajaradigan, jamoat ishlarida faol ishtirok etadigan intizomli xodimaga aylandi.



– Kichik serjant Muxlisa Qodirberganova xizmat faoliyatini boshlaganiga endigina ikki yil bo'lyapti, – deydi viloyat IIB MMI va KBTX Yoshlar bilan ishlash guruhi katta inspektori, kapitan Temur Otajonov. – U o'tgan vaqt ichida o'z bilim va kasbiy mahoratini, jismoniy qobiliyatini namoyon etib, qator nufuzli musobaqalar g'olibi va sovrindoriga aylandi. Ko'plab tezkor tadbirlarda qatnashib, jinoyatlarni «issiq izida» fosh etishga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

SOHAVIY XIZMATLARDA



HAMKORLIK SAMARASI

«Qarshi» va «G'uzor» temiryo'li bekatlari oralig'i 60 kilometrdan ortiq masofani tashkil etadi. Mazkur hududda joylashgan bekatlar, temiryo'li inshootlarida jinoyatchilikning oldini olish, yo'lovchi va yuk poyezdlarining harakat xavfsizligini ta'minlashga Qashqadaryo viloyati Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi guruhi katta inspektori, leytenant Sardor Shermatov mas'ul. U bu vazifani patrul-post xizmati bo'linmasi hamda hududiy ichki ishlar organlari xodimlari bilan birgalikda muvaffaqiyatli uddalab kelmoqda.

Leytenant S.Shermatov joriy yilning dastlabki 2 oyida temiryo'li o'tgan mahallalarda, xizmat hududidagi ta'lim muassasalari, korxona va tashkilotlarda o'nlab profilaktik tadbirlarni o'tkazdi. Temiryo'lga yaqin joylashgan xonadonlarda yakka tartibdagi suhbatlar uyushtirdi. Reja asosida o'tkazilgan tekshiruv va reydlar davomida esa

72 nafar fuqaro navbatchilik qismiga olib kelindi, 12 nafar huquqbuzarga nisbatan to'plangan hujjatlar qonuniy to'xtamga kelish uchun JIB Qarshi shahar sudiga yuborildi.

Afsuski, profilaktik targ'ibot tadbirlari olib borilayotganiga qaramay, ko'p bo'lmasa-da, temiryo'llarga shikast yetkazish holatlari uchrab turibdi. Misol uchun, joriy yil 9-yanvarda o'tkazilgan tadbirde «Qarshi» bekatining 3 km.da joylashgan 11- va 373-strelkalar oralig'ida uch nafar voyaga yetmagan temiryo'li izlaridagi ehtiyot qismlarni yashirincha olib ketayotgani aniqlandi. Voyaga yetmaganlarning shaxsiga aniqlik kiritilib, holat yuzasidan tegishli chora ko'rildi.

Muhokamalarda jinoyat va huquqbuzarliklarning sabab va omillari tahlil qilinib, ularni bartaraf etish choralari ko'rilmogda, – deydi leytenant Sardor Shermatov.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



САЛОМАТЛИК САБОҚЛАРИ

ЮРАККА ҚУВВАТ МАҲСУЛОТЛАР

Бутун организм бўйлаб қоннинг ҳаракатини таъминлашдек муҳим вазифани бажарувчи юракнинг тўлақонли ва соғлом фаолияти учун зарур бўлган ушбу маҳсулотлар ҳар бир инсоннинг кундалик таомномасида бўлиши керак.

Лосось (қизил гўшти балиқ) Омега-3 ёғ кислотасига бой бўлиб, у қон босимини меъёрида сақлаб туришга ёрдам беради ва тромблар ҳосил бўлишининг олдини олади.

Сули ёрмаси (овсянка)дан тайёрланган бўтқа катта-ю кичик учун бирдек фойдали. У Омега-3 ёғ кислотаси, фолий кислотаси тузлари ва калийга бойдир. Бундан ташқари, ушбу таомда қондаги зарарли холестерин миқдорини камайтирадиган турли фойдали тўқималар мавжуд.

Ўрик меваси ҳам юрак учун энг фойдали маҳсулотлардан бири бўлиб, унда қанд, органик кислота, каротин, дармондорилар, микроэлементлар (темир, рух, марганец) кўп миқдорда учрайди. Айниқса, ўрик мевасидан тайёрланган туршак дамламаси юрак учун жуда қувватбахшдир.

Юрак тўқималари, қон томирларини мустаҳкамловчи яна бир маҳсулот бу **зайтун ёғидир**. Бу ёғда тайёрланган таом ва сабзавотли салатларни мунтазам равишда истеъмол қилиш, юрак хасталиklarининг олдини олишга муҳим омил бўла олади.

Бундан ташқари **саримсоқ** қондаги «ёмон» холестерин миқдорини камайтиради, натижада юрак хасталиги ёки инсульт билан оғриш хавфи икки бараварга қисқаради. Ушбу маҳсулот қонни суюлтиради, қон босимини меъёрлаштиради, шу орқали юрак-томир

ва саратоннинг олдини олишда ҳам қўлланилади.

Дуккаклилар ҳақида ҳам унутмаслик керак. Фойдали тўқималар, Омега-3 ёғ кислотаси ва кальцийга бой бўлган дуккаклилар жуда фойдали ҳисобланади. Булардан айниқса ловия, ясмиқ ва нўхотни тез-тез истеъмол қилиб туриш мақсадга мувофиқдир.

Сабзавот ва кўкатлардан тайёрланадиган салатларга энг мос келадиган қўшимча бу **исмалоқдир**. У лютеин, фолий кислотаси тузи, кальций ва табиий тўқималарга бой бўлган боис, инсон танаси аъзолари учун энг фойдали табиий неъматлар сирасига киради.

Иммунитетни ошириб, таркибидаги С витамини туфайли инфекцияларга қарши курашувчи **занжабил** томирларда қон айланишини рағбатлантиради ва қон босимини меъёрга солади.

Кунгабоқар пистаси таркибида ҳам фойдали тўқималар ва Омега-3 кислотаси мавжуд бўлиб, уни сули ёрмаси бўтқасига ёки хамирли пишириқлар орасига солиб ажойиб, соғлиқ учун фойдали таом тайёрласа бўлади.



касаликлари хавфини камайтиради.

Ёнғоқ, данак ва бодомни меъёрда истеъмол қилиш ҳам жуда фойдали. Уларнинг таркибида Омега-3 ёғ кислоталари ва фойдали тўқималар кўп миқдорда учрайди.

Ҳамма учун бирдек севимли бўлган **қулупнай, малина (хўжағат), маймунжон ва смородина (қорағат)** шамоллаш ва гриппга қарши восита бўлиш билан бирга юрак хасталиклари



Юрак доим соғлом бўлсин десангиз...

Пиёда юринг. Бу саломатликни мустаҳкамлашнинг энг оддий усулидир. Хотиржам ва ўртача қадамлар билан кунига қарийб 3000 қадам юриш юрак учун жуда фойдали.

Шўр маҳсулотларни истеъмолдан чиқаринг. Меъёрдан ортиқ туз организм тўқималарида сув ушланиб қолишига хизмат қилади, бу эса қон босимининг ошишига олиб келиб, юрак учун қўшимча юклама бўлади.

Ортиқча вазндан қутулинг. «Ёмон» холестерин томирлар ички девори қобиғини зарарлайди ва ўша ерда тўпланади, натижада атеросклеротик тошмалар пайдо бўлади ва вақт ўтиши билан улар қаттиқлашиб, томирлар йўлини тўсиб қўяди.

Қон қуюқлашишига йўл қўйманг. Чунки бу томирларда қоннинг жуда секин ҳаракатланиши ва тиқинлар пайдо бўлишига олиб келиб, бош оғриғи, бўғимлар заифлашиши, хавотир ва руҳий чарчоқ, уйқучанлик, терининг қуриши каби ҳолатлар юзага келишига сабаб бўлади.

Меъёрида ухланг. Тўйиб ухлалмаслик юракка салбий таъсир кўрсатиб, одам организмда турли шиш ва яллиғланишлар пайдо бўлишига олиб келиши мумкин. Агар одам меъёрий 8 соат ўрнига 4–5 соат ухласа, унинг организмда цитокин молекулаларининг даражаси ортади. Бу эса баъзан артерияларнинг зичлашишига, қон босимининг ошишига, инсульт ва юрак фалажига сабаб бўлади.

Гулчеҳра АЗИМОВА тайёрлади.

ТОПИНАМБУР – СОКРОВИЩЕ В ЗЕМЛЕ

Топинамбур – низкокалорийный продукт, в котором содержится целый коктейль витаминов, минералов, органических кислот и незаменимых аминокислот. Это источник клетчатки и инулина, он известен своим благотворным влиянием на здоровье кишечника. Витамины и минералы делают топинамбур ценным для укрепления иммунитета, стимуляции метаболизма и поддержания общего состояния здоровья.

Польза топинамбура

Для иммунитета. Топинамбур, содержащий высокие уровни витамина С и антиоксидантов, способен укреплять иммунную систему. Систематическое потребление продуктов, богатых витамином С, поможет болеть реже. Витамин С активизирует производство лейкоцитов, которые обеспечивают защиту организма от инфекций и вирусов.

Для ЖКТ. Топинамбур содержит много пищевых волокон и инулина, которые оказывают положительное воздействие на здоровье ЖКТ. Инулин, действующий как пребиотик, способствует увеличению количества полезных бактерий в кишечнике, улучшая тем самым пищеварение и восстанавливая микрофлору.

Для контроля веса.

Топинамбур может быть полезен для людей, следящих за весом. Этот продукт обладает низкой калорийностью, но в то же время богат пищевыми волокнами, которые создают ощущение насыщения надолго. Это поможет сократить общее количество потребляемых калорий и похудеть.

В качестве антиоксиданта. Антиоксиданты в составе топинамбура защищают клетки тела от повреждений, которые могут быть вызваны свободными радикалами. Это снижает вероятность развития хронических болезней, таких, как сердечно-сосудистые нарушения.

Для контроля уровня сахара в крови. Инулин играет немалую роль в регуляции уровня глюко-



зы в крови. Он замедляет процесс усвоения глюкозы в кишечнике, что помогает поддерживать уровень сахара в крови более равномерным. Это особенно значимо для страдающих сахарным диабетом или находящихся в группе риска развития данного заболевания.

Для сердечно-сосудистой системы. Топинамбур богат калием и магнием, которые играют важную роль в поддержании сердечно-сосудистой системы. Калий способствует нормализации кровяного давления, в то время как магний помогает поддерживать регулярный

сердечный ритм и предотвращает аритмию.

Для лечения атеросклероза. Атеросклероз – это процесс утолщения, затвердения стенок артерий, что может стать причиной сердечных заболеваний. Топинамбур способствует снижению уровня холестерина в крови, предотвращая тем самым формирование атеросклеротических бляшек и улучшая кровообращение.

Важно!

Хотя топинамбур обладает множеством полезных качеств, он также может вызывать некоторые побочные эффекты. Рекомендуется начинать употребление топинамбура постепенно, чтобы дать организму время адаптироваться к новой пище.

Если у вас есть проблемы со здоровьем, обращайтесь к врачу. Употребление топинамбура можно рассматривать лишь как часть правильного питания.



8 Марта — Международный женский день

ОКАЗЫВАЯ ПОДДЕРЖКУ



Капитан Ирина Худойназарова – уроженка Гулистана, опытный сотрудник правоохранительных органов. Окончив в 1997 году Гулистанский государственный университет, начала службу в ОВД города, а затем работала в отделах пробации и по делам несовершеннолетних. С прошлого года является инспектором по вопросам женщин в Мирзаабадском районном отделе внутренних дел.

С первых дней службы на новой должности она начала посещать семьи, столкнувшиеся с серьезными разногласиями. Причины конфликтов разные: материальные трудности, давление со стороны родственников. В некоторых случаях споры разгорались из-за вмешательства свекрови или других членов семьи.

Семейные разногласия отрицательно сказываются на воспитании детей.

Один из таких случаев произошел недавно. Глава семьи страдал алкогольной зависимостью, тратил заработанное на спиртное. Женщина не раз подвергалась насилию. Несмотря на неоднократные приводы, мужчина не менял поведения. Тогда было организовано собрание с участием махалли,

на котором более двадцати старейшин прилюдно пристыдили нарушителя. Родственники и активисты начали регулярно навещать семью, оказывая поддержку. Постепенно мужчина изменил отношение к семье, взялся за ум, а в доме вновь воцарился порядок.

Ирина Худойназарова помогла многим семьям преодолеть кризис. Слова благодарности, которые она слышит от людей, — это для нее главная награда.

Абдурахмон МУСТАФОКУЛОВ, соб. корр.
Сырдарьинская область.



*К сиянию луны, красавицы ночной,
Добавлю я тепло, даримое свечой,
Сверканье сахара, осанку кипариса,
Журчание ручья... И выйдет облик твой.*
Омар ХАЙЯМ.



МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(10 - 16 март)



Кўй. Ушбу кунларда кайфиятингиз кўтаринки бўлиб, қўл урган барча ишларингиз бароридан келади. Бу ҳафта ҳам ишда, ҳам оилада ўзингизни кўрсатиш учун яхши палла. Бироқ бу жараёнда ортиқча ҳис-ҳаяжонга берилмай, имкон қадар босиқлик билан иш юритиш лозим. Яқинларингиздан ўз кўмак ва меҳрингизни зинҳор аяманг.



Бузоқ. Оилавий муносабатларга путур етмаслиги учун жаҳл ва ғазабга эрк бермай, ақл билан иш юритинг. Яқинларингизнинг кўнглини оғритишдан имкон қадар йироқ туринг. Шахсий ҳаёт борасида хушёр ва синчков бўлган маъқул.



Эгизаклар. Даромадни ошириш осон эмаслигини, бунинг учун ўз устида ишлаш муҳим аҳамият касб этишини унутманг. Сизга хос бўлмаган кўрслик ва совуқ муносабат яқин кишиларнинг узоқлашишига сабаб бўлиши мумкин. Атрофдагиларга ўз қоидаларингизни ўтказишга ҳаракат қилманг.



Қисқичбақа. Иш жойингизда жамоа таркибининг ўзгариши кузатилиши мумкин. Нимаки юз бермасин, фаоллик ва ташаббускорлик кўрсатиб, олдинга илдамлашда давом этинг. Ҳафта омадли бўлиб, вужудингизга қўшимча куч, илҳом, ғайрат қуйилиб келади.



Арслон. Фойдали алоқалар шарофати билан истеъдод ва қобилиятларни намоён этиш учун янги имкониятлар эшиги очилиши кутилмоқда. Дам олиш кунлари атрофдагилар билан тил топишиш, бошқаларнинг ўй-фикрларини тушуниш ва қабул қилиш осонроқ кечади.



Паризод. Ҳафтанинг иккинчи ярмида тақдирингизда баъзи ўзгаришлар юз бериши мумкин. Бу даврда барча муҳим ишларни режалаштириш муваффақият олиб келади. Оила аъзоларингизга кўпроқ вақт ажратишга ҳаракат қилинг.



Тарози. Иш жойингизда кутилмаган ва асосий ўзгаришлар юз беради. Ушбу кунларда кайфиятингиз ҳам кўтаринки бўлиб, қўл урган ишларингиз бароридан келади. Ҳозир олдингизда қандай танлов турмасин, албатта, тўғри қарор қабул қиласиз, бунга ишонинг.



Чаён. Сизни турмуш чорраҳаларида жиддий ўзгаришлар кутмоқда. Бу ҳафта давомида ҳар қандай қарорни мустақил қабул қилишга, кераксиз ва ҳалақит қилувчи буюмлардан қутулишга, атрофингизни ўраб турган муҳитга янги тус бахш этишга интилинг.



Ўқотар. Шу кунларда тушкунликка берилган, умидсизланган ёки хаста инсонларнинг таъсир кучига берилиб қолманг. Бу руҳий ҳолатингизда салбий ўзгаришлар юзага келишига сабаб бўлиши мумкин. Аксинча, сиз уларга ижобий таъсир кўрсатиб, ҳаётга бўлган қизиқиши ва умидини орттиришга ҳаракат қилинг.



Тоғ эчкиси. Ҳафтанинг биринчи ярми кўчмас мулк ёки қимматбаҳо буюмлар харид қилиш учун мақбул давр. Шунингдек, бу ҳафта давомида истеъдод ва салоҳиятни, ташкилотчилик қобилиятини янада кучлироқ намоён этиш омад эшикларини очиши мумкин.



Қовға. Ушбу ҳафта молиявий ва оилавий муаммоларни ҳал қилиш учун жуда қулай. Илмли ва фаол инсонлар билан танишиш ижтимоий алоқаларни кенгайтиришга, ширинсуханлик эса ҳамфикр ва маслақдошларни топишга имкон яратади. Ортиқча ишончсизликдан воз кечинг.



Балиқ. Ҳаётингизда ўсиш, ривожланиш, ўз устида ишлаш ва янги ишлар бошлаш учун қулай давр келди. Ушбу ҳафта ҳаётингизда муҳим масалалар, жумладан, оила, саломатлик, фарзандлар ва иш фаолияти билан боғлиқ келгуси ҳаракат ва режалар учун ҳал қилувчи палладир. Бироқ ҳар қандай кўчиб ўтиш ва сафар парвозларини амалга ошириш тавсия этилмайди.



FORUM LAVHALARI



Ўқишни тавсия қиламан

«ЯШАМОҚ»
ИЧИДА ЯШАЙСИЗ...

Бизда Европа ёки Америка ёзувчилари асарлари кўп таржима қилинган. Хитой, корейс, япон адабиётидан таржималарни эса жуда кам кўрамыз. Ваҳоланки, хитойлик ёзувчи Юй Хуанинг «Яшамоқ» романи ўзбек тилида чоп этилгани адабиёт ихлосмандлари орасида катта воқелик сифатида қабул қилинди.

Роман дастлаб, 1993 йилда нашр этилган, у асосида ишланган кино 1994 йилги Канн кинофестивалида бош мукофотни қўлга киритган. Асар Америкада бестселлер бўлган ва айни дамда 20 дан ортиқ тилларга таржима қилинган.

«Яшамоқ» романи 1946–1949 йилларда Хитойда катта фуқаролик уруши даврида яшаган одамларнинг ҳаёти, ташвишлари ва изтироблари ҳақида ҳикоя қилади. Асар қаҳрамони Фугуи исмли бой хитой йигити. У бор бойлигини қиморда ютқазиб қўяди. «Яшамоқ»нинг залвори ва бутун қайғуси ана шундан кейин бошланади. Фугуининг аввал отаси, бироз вақт ўтиб онаси вафот этади. У ҳатто ўғли, қизи, хотини, куёви ва набирасининг аянчли тарзда ажал билан юзланишига гувоҳ бўлади. Ҳар бир йўқотишнинг алоҳида сабаблари ёзувчи томонидан моҳирона очиб берилади. Ҳар бир ўлимда ўқувчининг ичида нимадир узилгандек бўлади.

Айниқса, эрталаб елкасидаги сумкаси бир юқорига, бир пастга сакраб мактабга ялангоёқ югуриб борадиган ўғли Ючиннинг аянчли ўлими ўша даврдаги адолатсизликни бор бўй-басти билан кўрсатиб беради. Умуман, асарда реал ҳаёт шу даражада зўр тасвирланганки, уруш, айрилиқлар, яхшиликлар, бахт, адолатсизлик, очарчилик, неъматларга шукроналик, садоқат, вафо, меҳр-оқибат... ҳамма-ҳаммаси мужассам унда!

«Ўзингни бахтли ҳис этсанг, камбағал бўлиш уят эмас!», «Келажак авлодга яхши нарсалар қолдириш керак», «Қиморнинг қарзи номусдир!», «Император бир парча нон учун тиланчилик қилса ҳам, у императордир», «Ҳар куни ўлгудек чарчаб ишласангиз, бошқа нарсалар ҳақида



ўйлашга вақтингиз ҳам қолмайди», «Бутун бошли оила ҳар куни бирга бўлса, пулнинг нима аҳамияти бор?», «Умидимизни йўқотсак қандай қилиб яшаимиз мумкин, ахир?», «Ху оиласи аъзолари фақатгина товук боқишган. Товуклардан кейин ғозга, ғоздан кейин хўкиз боқишга ўтишган. Мана шундай қилиб бадавлат бўлишган. Навбат менга келганида хўкизлар ғозга айланди, ғозлар товукқа ва мана энди битта товугимиз ҳам йўқ!», – асарда фойдаланилган мана шундай ибораларнинг ҳар бирида алоҳида туйғулар яширинган.

«Яшамоқ»ни ҳеч иккиланмай сара асарлар қаторига қўшиш мумкин. Юй Хуа нозик ва моҳирона тасвир услубидан, содда ва лекин таъсирли

тилдан фойдаланган. Жимжимадор сўзлар ва ташбеҳлардан максимал даражада қочишга ҳаракат қилган. Асар жуда енгил ўқилади. Аммо ундаги воқеаларни ҳазм қила олиш...

Хуллас, ушбу китобни барча ўқишини истардим. Негаки, қалбингизда бугунги кунингизга нисбатан шукроналик ҳисси уйғонади. Кетказган вақтингизга эса сира ачинмайсиз.

Аброр ПОЁНОВ,
ўз мухбиримиз.



MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir
o'rinbosarlari
podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Navbatchilar

Gulnoza TURG'UNBOYEVA
Radik TUMPAROV

Mas'ul kotib
Erkin SATTOROV

Sahifalovchilar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari
bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 599.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
45177 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.